

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SPORTNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**3.4.**

**“YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI”  
MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish  
yo‘nalishi:**

**Tinglovchilar  
psixologlari  
kontingenti:**

**Sport psixologiyasi**

**Sport ta’lim muassasalari**

**Toshkent – 2023**

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan sport psixologiyasi malakasini oshirishi kursining o‘quv rejasini va dasturini asosida tayyorlandi.

### **Tuzuvchi:**

J.A. Pulatov - Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, dotsent (PhD)

### **Taqrizchilar:**

O.E.Hayitov Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

D. S.Karshiyeva - TDPU “Amaliy psixologiyasi” kafedrasini dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi institut ilmiy kengashining 20\_\_yil “\_\_”  
\_\_\_\_\_da o‘tkazilgan yig‘ilish \_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya  
qilingan.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>I Ishchi dastur</b>	<b>4</b>
<b>II Modulning o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari</b>	<b>11</b>
<b>III Nazariy materiallar</b>	<b>16</b>
<b>IV Amaliy mashg‘ulot materiallari</b>	<b>52</b>
<b>V Keyslar banki</b>	<b>63</b>
<b>VI Testlar banki</b>	<b>69</b>
<b>VII Glossariy</b>	<b>76</b>
<b>VIII Adabiyotlar ro‘yxati</b>	<b>78</b>

### KIRISH

Jismoniy tarbiya va sport shaxsni kompleks shakllantirish tizimining uzviy qismidir. O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'ligi haqida g'amxo'rlik, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy madaniyat va sport bilan muntazam, mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surishi bejiz emas. Xususan, ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Insonni jamiyatimiz uchun to'laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi juda muhimdir. Mazkur o'quv uslubiy majmua ayni shu tamoyillar zahirida malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlarida psixologiya fanlarini o'qitishning zamonaviy konsepsiyasi hamda o'quv reja va namunaviy dasturlari asosida yaratilgan.

Ma'lumki, yosh davrlari psixologiya kursi psixologiya ilmining muhim tarmog'i sifatida, inson psixik jarayonlarining ontogenezdagi psixologik xususiyatlarini va odam shaxsining ta'lim-tarbiya sharoitida psixik taraqqiyotining har bir davriga xos xususiyatlarini o'rganuvchi sohadir.

Yosh davrlari psixologiyasi ta'lim va taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi, ta'limning tuzilishi, o'quvchilarning o'qish va bilish faoliyatini shakllantirish hamda tarbiya psixologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsni barkamol inson sifatida shakllantirish kabi muhim muammolarni tadqiq etadi. Bunda, o'quv-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy ta'lim-tarbiya nazariyasining vazifalari, uning etnopsixologik xususiyatlari hamda ular tomonidan yoritilgan shaxs taraqqiyotini boshqarish imkoniyatlari o'rganiladi.

Uning muhim vazifalari - tinglovchilarda psixologik-pedagogik vaziyatlarni samarali rejalashtira olishga, aqliy va shaxsiy taraqqiyot bilimlarini unumli egallashga, turli yosh davrlarida psixik taraqqiyot qonunlarini to'g'ri anglab, psixotashxis tadqiqotlar olib borishga, o'quvchilarga individual yondasha bilishga, bola psixikasi taraqqiyotida turli noxush holatlarning oldini ola bilishga, otalar, o'z hamkasblari va bolalar bilan madaniyatli muomalada bo'lishga, psixologik nazokatni to'g'ri shakllantirish kabi muammolarini ijobiy hal etishga qaratilgan. Yosh davrlari psixologiyasi o'quv moduli umumiy psixologiya, falsafa, pedagogika, yosh fiziologiyasi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Uni o'rganish jarayonida kompyuter texnikasi, aqliy taraqqiyot testlari va boshqa usullardan keng foydalaniladi.



## ISHCHI DASTUR

# Yosh davrlari psixologiyasi

---

## Modulning maqsadi va vazifalari

### Modulning maqsadi:

- tinglovchilarda yosh va pedagogik psixologiyaning fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari. Ontogenez psixologiya. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi. Psixik rivojlanishning turli xil nazariy yondashuvlari. Psixik taraqqiyot va uning omillari. Omillarning psixik rivojlanishga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari va qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishdan iborat.

### Modulning vazifalari:

- yosh va pedagogik psixologiyaning fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari;

- ontogenez psixologiya. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi;

- taraqqiyot psixologiyasining nazariy asoslari haqida umumiy tushunchalar berish to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish hamda rivojlantirishdan iborat.

## Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Yosh davrlari psixologiyasi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### Tinglovchi:

- yosh va pedagogik psixologiyaning fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari;

- jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi;

- psixik taraqqiyot va uning omillari;

- psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi bo'yicha bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalari haqida *bilishi* kerak

### Tinglovchi:

- yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi;

- sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi;

- yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi;

- psixik taraqqiyot va ta'lim haqida **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

### Tinglovchi:

- psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi;

- yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari;

- psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari;

- sport faoliyatlarida yosh davrlari psixologiyasi bo'yicha tadqiqot metodlardan samarali foydalanish haqida bilim, ko'nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

## Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va o'zviyligi.

Modul mazmuni o'quv rejadagi “Sport pedagogikasi”, “Umumiy psixologiya”, “Sport tibbiyoti”, “Sport psixologiyasi”, “Sport psixodiagnostikasi”, “Konsultativ

## Yosh davrlari psixologiyasi

psixologiya va psixokorreksiya” kabi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini ortirishga xizmat qiladi.

### Modulning sport ta’limidagi o‘rni.

Yosh davrlari psixologiyasi moduli sport psixologlarining o‘z kasbini puxta egallashi, sportchi shaxsining yosh davrlari va revojlantirish bosqichlari, psixologik holatlar, jismoniy sifatlaridagi holatlar va psixologik muammolarni, aniqlash, psixologik jihatdan tayyorlashni tadqiq etishning zamonaviy usullari va psixologik tayyorlashga doir kasbiy malakaga ega bilimlar bilan qurollantirish uchun xizmat qiladi.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari				
		Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
		Jumladan				
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Yosh va pedagogik psixologiyaning fanining predmeti, vazifalari.	2	2			
2.	Psixik taraqqiyot va ta’lim.	2	2			
3.	Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi.	2	2			
4.	Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari.	2		2		
5.	Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.	2		2		
	<b>Jami:</b>	<b>10</b>	<b>6</b>	<b>4</b>		

### NAZARIY TA’LIM MAZMUNI

#### 1-mavzu. Yosh va pedagogik psixologiyaning fanining predmeti, vazifalari.

##### Reja:

- 1.1. Yosh davrlari psixologiyasi faning predmeti, maqsadi, vazifalari.
- 1.2. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi.
- 1.3. Psixik rivojlanishning turli xil nazariy yondashuvlari.
- 1.4. Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari.

Yosh va pedagogik psixologiyaning fanining predmeti, vazifalari va tadqiqot metodlari. Ontogenez psixologiya. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi. Psixik rivojlanishning turli xil nazariy yondashuvlari. Psixik taraqqiyot va uning omillari. Omillarning psixik rivojlanishga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari va qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish.

### **2-mavzu. Psixik taraqqiyot va ta'lim.**

#### **Reja:**

2.1. Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari.

2.2. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari..

Psixik taraqqiyot va ta'lim. Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari, psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. psixik rivojlanishning asosiy omillari, yosh tushunchasi.

### **3-mavzu. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi.**

#### **Reja:**

3.1. Yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi.

3.2. Sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi.

Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar) yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi haqida (Z.Freyd), sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi haqida (E. Erikson) yosh davrlarining yetakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin).

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

### **4-mavzu. Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari.**

#### **Reja:**

4.1. Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari (кузатиш, суҳбат, тест.....).

Yosh va pedagogik psixologiya fanlarining tadqiqot metodlari va sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanlari doirasidagi tadqiqotlarda qo'llanadigan empirik - tashkiliy, qayta ishlash va talqin etish metodlari, tadqiqotlarning asosiy sohalari - yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanlarining alohida bo'limlarini aniqlashtirish.

### **5-mavzu. Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.**

#### **Reja:**

5.1. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

5.2. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari.

Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi, bir yosh inqirozi haqida, ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari, ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. «Inqiroz» tushunchasi. Bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o'tish. Yosh inqirozlari davrida xulq-atvor va muomalaning o'ziga xos xususiyatlari. Yosh inqirozlarining inson taraqqiyotidagi ahamiyati.



## **Yosh davrlari psixologiyasi**

---

### **Dasturning axborot-metodik ta'minoti**

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

## I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 592b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 400b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘xalqning ishi han ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 592b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.

## II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassisلامي qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 335-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

## III. Maxsus adabiyotlar:

1. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T. 2002.
2. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. T. 2010
3. Крайг Г. Психология развития. М. 2000
4. Nishonova Z.T., Alimova G.Q. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. T. TDPU, 2005.
5. Davletshin M.G., Do‘stmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M., “Yosh va pedagogik psixologiya”. T. TDPU, 2004 .
6. Davletshin M.G. “Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi”. T. TDPU, 1999 y.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

7. Элконин Д.Б. Избранные психологические труды. – М., 2000.
8. Бауер М. Психологическое развитие младенца.– М., 2001. Акинщикова Г.И. Соматическая и психофизиологическая организация человека. Л. 2000.
9. Базылевич Т.Ф. Развитие концепции целостной индивидуальности. В сб.: В.Д Небылисын. Жизнь и научное творчество». М., Наука, 2003.
10. Биологическое и социальное в развитии человека. Под ред. Б.Ф.Ломова, М., Наука. 2000.
11. Брушлинский А.В. Проблемы психологии субъекта. М. 2001.
12. Nishonova Z.T., Tulyaganova Sh.T., Ubaydullayev A.X. «O‘smirlik davrida qo‘rquv holatining namoyon bo‘lishi». T.TDPU, 2009.
13. Райс Ф. Психология подросткового и юношеского возраста. М.2003
14. Элконин Д.Б. Детская психология. М. 2000
15. Эфимкина Р.П. Детская психология. М. 2003.
16. J.A Pulatov. Yosh davrlari psixologiyasi [Matn]: Darslik. Toshkent: “Umid Design”, 2022.-203 b.
17. J.A. Pulatov Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining dars jarayonlarini tashkil etishida psixologik yondoshuvi. [Matn]: O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Umid Design”, 2021.-113 b

### IV. Elektron ta’lim resurslari:

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.minsport.uz>
3. <http://www.sportedu.uz>
4. <http://edu.uz>
5. <http://lex.uz>



**MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA’LIM METODLARI**

## Yosh davrlari psixologiyasi

**INTERFAOL METODLAR** deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

### “SWOT-TAHLIL” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Umumta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fani dars mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan voleybol mashg'uloti yuzasidan SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

## Yosh davrlari psixologiyasi

S	<b>Basketbol o‘yining kuchli tomonlari</b>	W	<b>Basketbol o‘yining kuchsiz tomonlari</b>
	•		•
	•		•
	•		•
	•		•
O	<b>Basketbol o‘yining imkoniyatlari</b>	T	<b>Basketbol o‘yining to‘siqlar</b>
	•		•
	•		•
	•		•
	•		•

### **“AQLIY HUJUM” metodi**

**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta‘lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta‘lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta‘lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta‘lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta‘lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta‘lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:**

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

### **“DAVRA SUHBATI” metodi**

**“Davra suhbatı” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

### **PSIXOTRENING MASHG'ULOTLAR.**

**O'zini-o'zi qabul qilish va o'zini boshqalar tomonidan qabul qilinishini anglash xususiyatlari uchun mashqlar**

#### **“O'ZINI-O'ZI TANQID” mashqi**

Har bir kishining o'zi haqida mustaqil fikri bor, u o'zining takrorlanmasligi, nodirligi bilan boshqalardan ajratib turadi. Shu bilan birga beixtiyor savol tug'iladi: boshqalar ham uning o'zi haqidagi fikrlarini bilishadimi, boshqalar ham uni o'zi ko'rganidek ko'radilarmi? Berilgan mashq bu savolga javob topishga yordam beradi. Ishtirokchilar qog'oz varaqlarini oladilar va unga ishlarini yozadilar va uni uchta vertikal chiziq bilan bo'ladilar.

**1-grafa:** “Men kimman?” 10ta epitet so'z, javoblar tez yoziladi, miyaga kelgan fikrni qanday bo'lsa shunday ifoda qilinadi.

**2-grafa:** “Bu savolga sizning ota-onangiz, tanishlaringiz qanday javob bergan bo'lar edilar?” (ulardan bittasini tanlash mumkin).

**3-grafa:** Xuddi shu savolga guruhdan bir odam javob beradi. Kimligini, ishtirokchini tanlaydi.

Keyin har bir ishtirokchi o'z varag'ini oladi, javoblarini solishtiradi, bir-biriga o'xshash joylarini ajratib chiqadi. Xatti-harakatini kuchli tomonlarini ajratib o'tish mumkin, u uchala grafada ham takrorlanadi, mos kelgan so'zlar hisoblanadi. Mos kelgan so'zlarning salmog'i insonni qanchalik ochiqligini ko'rsatib beradi.

#### **“HAMKORNI TASAVVUR QILISH” mashqi**

Guruhlar juft-juft bo'lib bo'linadilar (juftlikka notanish bo'lgan insonlar birlashadilar). Besh daqiqa mobaynida har bir ishtirokchi o'z hamkori bilan

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

suhbatda u haqida ko‘proq axborotni olishi kerak. O‘zini-o‘zi taqdim qilishda quyidagi savollarni berishi mumkin: men o‘zimda nimani qadrlayman, men faxrlanadigan narsa, men nimani hammadan yaxshi bajaraman va boshqalar. Taqdimot quyidagicha tartibda o‘tadi: juftlikning bir a‘zosi stulda o‘tiradi, ikkinchisi uning orqasida turadi, birinchi odamning elkasiga qo‘lini qo‘yib, turgan odam o‘tirgan odam nomidan gapiradi, o‘zini sherigining nomi bilan ataydi. Gapirayotganning vazifasi o‘z taqdimotni bir daqiqa mobaynida gapirib o‘tishi kerak. O‘tirgan odamni taqdim etib bo‘lganidan so‘ng guruhdagi hohlagan odamga savol berishi mumkin, bularga esa u o‘tirgan odam nomidan javob beradi. Taqdimot qilinayotgan inson jarayonga qo‘shilishga haqqi yo‘q, uning vazifasi jim o‘tirish va eshitish.

### **“ROLLI O‘YIN” metodi**

#### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta‘lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin stsenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta‘lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta‘lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta‘lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta‘lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun senariy ta‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba‘zi hollarda ta‘lim oluvchilarni ham stsenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta‘lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba‘zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta‘lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.





## NAZARIY MATERIALLAR

### 1-MAVZU. YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING FANINING PREDMETI, VAZIFALARI.

#### Reja:

- 1.1. Yosh davrlari psixologiyasi faning predmeti, maqsadi, vazifalari.
- 1.2. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi.
- 1.3. Psixik rivojlanishning turli xil nazariy yondashuvlari.
- 1.4. Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari.

#### **1.1. Yosh davrlari psixologiyasi faning predmeti, maqsadi, vazifalari**

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari mushtarak, birbiriga uzviy bog'liqdir, chunki ularning har ikkisi, bitta, umumiy jarayonni - ulg'ayib borayotgan insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi.

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya ilmining alohida predmeti sifatida XIX - asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo'li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishiga turli dunyoqarashlar o'rtasida olib borilgan doimiy kurash katta ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni qanday izohlash zarurligi belgilab berilgan. Biroq, shunday bo'lsada, bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib, ularning har biri o'z predmeti va tadqiqot vazifalariga egadir.

**Yosh davrlari psixologiyasining predmeti** - inson psixikasining yosh bilan bog'liq o'zgarishlari, psixik jarayonlar ontogenezi (organizmning individual rivojlanishi) va rivojlanayotgan odam shaxsiyatining psixologik sifatlari, psixik jarayonlardagi yosh xususiyatlari, bilimlarni egallashda yosh imkoniyatlari, shaxs kamolotining asosiy omillarini o'rganadi. Shuningdek, inson ruxiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu sohadagi ma'lumotlarni to'plash xam mazkur psixologiyaning mavzu bahsiga kiradi. Bolaning tug'ilishidan voyaga etgunicha har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng xuquqli a'zosi bo'lgunicha ulg'ayishi va shaxsining tarkib topishi muammolarini, bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharhlash yosh davrlari psixologiyasi sohasining muhim jihatidir.

**Yosh psixologiyasining nazariy vazifalari** g'oyat muhim va murakkab bo'lib, u shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi insonlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'zganishdan iboratdir.

**Yosh psixologiyasining amaliy vazifalari** esa psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi hamda inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi, ilmiy dalillar, metodikalarni ta'lim-tarbiya sohalariga tadbiiq etish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezda turli yoshdagi va jinsdagi shaxslarning psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, insonda turli psixik jarayonlar (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar) rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning hayoti davomida amalga oshiruvchi har xil faoliyatini

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

(o‘yin, o‘qish, mehnat kabilar), erkak va ayol kishining jinsiy tafovutlarini hamda inson shaxsining tarkib topishi va rivojlanish davrlarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi. Bolaning tug‘ilishidan voyaga yetgunigacha har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng huquqli a‘zosi bo‘lib ulg‘ayishi, shaxs sifatida shakllanishida yuzaga keladigan muammolar, qonuniyatlar, psixik mexanizmlarini aniqlash va sharhlash yosh davrlari psixologiyasi sohasining muhim jihatidir<sup>1</sup>.

Ontogenez - (yunoncha, ontos-mavjud, jon, zot; genezis- kelib chiqish, paydo bo‘lish) - individning paydo bo‘lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Ontogenez psixologiyasi sohasi inson psixikasi faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishi, takomillashib borishi va o‘zgarishi haqidagi metodologik hamda fenomenologik qoidaga amal qiladi. O.V. Gruzdeva., O.M. Verbiyanovlar tomonidan “ Rivojlanish psixologiyasi inson ontogenizini psixik rivojlanish xususiyatlarini o‘rganadi. To‘g‘ilgandan to‘ keksa yosh davr bosqichlarida shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, hayot yo‘lini tadqiq etadi”<sup>2</sup>. degan fikrlari orqali yosh davrlari psixologiyasini o‘rganish asosida inson shaxsi va uning individual psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlarini tarkib topishida muhim ahamiyatga egaligini ko‘rishimiz mumkin.

Yosh davrlari psixologiyasi fani bu borada ham o‘z-o‘ziga tegishli masalalar doirasida o‘rganish bilangina cheklanib qolmay, yosh davrlariga asoslangan ta‘lim - tarbiya berishning mazmun va mohiyatiga ham alohida e‘tibor qaratadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonlarida beriladigan bilimlar, albatta yosh davrlariga asoslangan o‘quv yuklamani bola shaxsida qanday o‘zlashtira olish qobiliyati muhim sanaladi. Bunda ta‘lim beruvchi, pedagog shaxsida o‘quvchilarning yosh davrlari, bilish jarayonlari, individual psixologik xususiyatlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozimligini taqozo etadi. Bu qonunlar yosh davrlari psixologiyasining turli yosh bosqichlarida o‘rganiladi, chunonchi: bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologiyasi, o‘smirlar psixologiyasi, o‘spirinlar psixologiyasi, katta yoshdagi kishilar psixologiyasi va qariyalar (gerontopsixologiya) psixologiyasi kabilarda.

Yosh psixologiyasi xar bir yosh davrining qaytarilmas xususiyatlarini, yillar o‘tgan sari, asta-sekinlik bilan bola qanday qilib inson bo‘lib shakllanishi, shaxs sifatida o‘zini ijtimoiy munosabatlarda namoyon qilishi, kasb tanlashi, muloqot jarayonida o‘zining erk, xuquq va majburiyatlariga intilishi, qanday qilib sevishi, ishonchli do‘st bo‘lib tarkib topishi, o‘zi va boshqalar uchun ma‘suliyatni xis qilishi kabi jihatlarni tadqiq etadi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> B. N. Sirliev, O. A. Tursunova. Yosh davrlari va differensial psixologiya: Ma‘ruzalar kursi / – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 5.bet.

<sup>2</sup> Груздева О.В., Вербианова О.М. Психология развития (Возрастная): Учебно-методическое пособие Для обучающихся по направлению подготовки: “Педагогика” / Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. - Красноярск, 2011.-184 с.

<sup>3</sup> Sh.A. Do‘stmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T. Karimova, Sh.T.Alimbaeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: Darslik –T.: "Fan va texnologiya", 2013. – B.5-6.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Ta'lim-tarbiyaning yosh xususiyatlariga bog'liq jihatlari qadimgi davrlardan buyon o'rganiladi. Yosh davrlari psixologiyasiga genetik g'oyalarning kirib kelishi bilan bog'liqdir. Bu borada rus pedagogi K.D.Ushinskiy birinchi navbatda uning "Chelovek kak predmet vospitaniya" ("Inson – tarbiya predmeti sifatida") degan asari muhim o'ringa egadir. Yosh davrlar psixologiyasining rivojlanishiga ingliz olimi Charlz Darvinning evolyusion g'oyalari jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Psixologiya tomonidan o'rganiladigan omillarining reflektor mohiyatini tushunish uchun psixik faoliyat ahamiyatini mashhur fiziolog olim I.M.Sechenov ham ta'kidlab o'tgan.

Yosh va pedagogik psixologiyada Veber va Fexnerning psixofizik kashfiyoti, Ebbingauzning xotiraga oid tadqiqoti, G.Gelmgolsning sezgi organlarining psixofiziologiyasiga doir, Vundt tomonidan psixologik psixologiya hissiyoti va harakatlarning o'rganilishi va boshqalar asosiy ahamiyatga ega. Yosh davrlari psixologiyasida yosh va uni tabaqalanish davriyligida go'daklik, bolalik davrlari boshlang'ich bosqich sifatida keltirilgan bo'lib, pedalogiya fani bilan uyg'unlashgan holda tadqiq etiladi.

Ma'lumki, go'daklik davridagi oddiy sezishdan boshlab, mantiliy fikr yuritishgacha o'tadygan davr nisbatan uzundur. Endigina to'g'ilgan chaqaloq ham dastlabki soatlardan boshlab sezgi organlari yordamida atrof-muhitni aks ettirishga kirishadi. Biroq uning tafakkuri bir necha oylar va xatto, yillar davomida vujudga keladi, nutq bilan tafakkurnig birligi mazkur rivojlanishni amalga oshiradi. Bunday holat o'ta murakkab hissiy bilishdan mantiqiy tafakkurga o'tish jarayoni bosqichini tadqiq etish imkonini beradi.

**"Pedologiya"**- ("paydos" - go'dak va "logos" - fan) - bolalar haqidagi fan demakdir. Pedologiya mazmunan bola rivojlanishining biologik, psixologik, sosiologik konsepsiyalarining mexanik umumiylikni tashkil etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshida paydo bo'lgan (S.Xoll, E.Meyman, V.Preyer - G'arbda, V.M.Bexterev, A.P.Nechaev, G.I.Rossolimo - Rossiyada) evolyusion g'oyalarning psixologiyaga kirib kelishi bilan pedologiya XX asrning 30 - yillarida bolalar haqidagi yagona fan mavqeiga da'vogarlik qila boshladi. Yosh davrlari psixologiyasining rivojlanishi, taraqqiy etishida bir qator fanlar va uni tarmoq yo'nalishlar jumladan, fiziologiya, biomexanika, pedagogika, *gerontopsixologiya*, gerontogenez, akmeologiyaning ham salmoqli o'rni va aloqadorligini ko'rishimiz mumkin. Akmeologiya rivojlanish davri 18 dan 60 gacha bo'lgan yosh davrlarni o'z ichiga oladi. Ilk bora "Akmeologik" termini N. A. Ribnikov tomonidan 1928 - yilda taklif etilgan. Bu termin ("akme" - eng baland cho'qqi, g'oya, gullash, eng yaxshi davr) degan ma'no va g'oyalarni anglatib, insonning umridagi eng ijodiy va samarali davrni aniqlashtiradi. Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini "akme" deb ataganlar.

Gerontogenez davri - bu inson xayotining kechki davridir. Bu davrda 3ta bosqich mavjud: ilg'or yoshi (erkaklar uchun- 60-74 yosh, ayolar uchun - 55-74 yosh); keksalik 75-90 ; o'zoq yashovchilar - 90- va undan katta yosh davrning psixologik va fiziologik funksiyalari, uglevod, oqsil va yog' almashinuvi, intensivligi kabi jarayonlarni o'rganadi.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Yosh davrlari psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qo‘yidagi omillar to‘rtki bo‘lgan:

1. Ch. Darvinning evolyusiya g‘oyasi, inson psixikasining rivojlanishi jarayonida o‘rganish zarurligi.
2. Umuminsoniy, umumpsixik qonuniyatlar turli yoshdagi odamlar xatti-harakatini, psixik xususiyatlarini va bolalarning o‘shiga biror faoliyatning ta‘sirini aniqlash uchun etarli emasligini e‘tirof etish;
3. Yosh davrlari psixologiyasi insonning (tug‘ilganidan umrining oxirigacha) kamoloti uchun metodologik va nazariy ahamiyatga ega ekanligi tan olingani;
4. Tibbiyot fani va uning tarmoqlari rivojlanishi, psixiatriya, psixonevrologiya, psixogigiena, bolalar va kattalar patologiyasi, neyroxirurgiya, genetika, oliy nerv faoliyati va hokazolar bo‘yicha kompleks tadqiqotlarning vujudga kelishi;
5. Yuridik (huquqshunoslik) psixologiyasi va uning sohalarini ijtimoiy hayotimizda sezilarli o‘rin egallayotgani hamda yoshlar o‘rtasida qonunbuzarlikning ortib borayotgani (sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitensiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi; voyaga etmagan qonunbuzarlar muammosi va jinoyatning oldini olish masalalari);
6. Amaliy psixologiya sohasi o‘z o‘rnini topayotgani (psixologik maslahatlar, auto va sosial treninglar, psixodiagnostika);
7. Psixologiya fani sohalarining inson ontogenezidagi o‘zgarishlarga doir, bilimlarga ehtiyoji va talabi ortayotgani;
8. Oila psixologiyasi va muammolari, yoshlarni oilaga tayyorlashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarning dolzarbligi;
9. Fiziologiya fani unda yosh davrlariga asoslangan jismoniy rivojlanish masalalari;
10. Gerantopsixologik qonuniyatlarni ochish va targ‘ib qilish, keksa yosh davri va ularning ruxiyatiga mos munosabatda bo‘lish kerakligi yosh davrlari psixologiyasini rivojlanish istiqbolini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda yosh davrlari psixologiyasining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalari turadi, uning nazariy vazifalariga qo‘yidagilar kiradi:

1. Turli yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarini, bilish jarayonlarini ya‘ni bolalarning idrokiga, sezgi-tuyg‘ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o‘rganish;
2. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlab berish;
3. Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni o‘rganish;
4. Bola shaxsi va shaxsiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganish;
5. Bolani maktab ta‘limiga tayyorlash;
6. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish;
7. Ta‘lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish;
8. Ta‘lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish;
9. O‘quvchilarni yosh davrlari psixologiyasi, fiziologiyasi va motivatsiyasi asosida sport turlariga yo‘naltirish;
10. Ta‘lim-tarbiya ishlarining psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterligi sifatlarining hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kuzatishlarga asoslanib, yosh davrlari psixologiyasi ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liq deb hisoblash mumkin.

- birinchi - inson to'g'ilib voyaga etadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;
- ikkinchi - odamga o'zoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim tarbiyaning ta'siri;
- uchinchi - odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siri orqali shakllanadi.

Ma'lumki, har bir inson o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi. Buning natijasida insonning psixik taraqqiyoti, xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, xarakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq xususiyatlari, jismoniy tayyorgarligiga monand pedagogik yondashish, yosh davrlari psixologiyasining jadallashtirishga qo'yilgan talablarida namoyon bo'ladi.

### 1.2. Jahon psixologlari asarlarida yosh davrlari muammosi.

20-30-yillarda pedagogik psixologiya sohasida boy tadqiqot materiallarini o'z ichiga oluvchi ko'p ilmiy ishlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar: N.K.Krupskaya (tanlangan asarlar), A.S.Makarenkoning bola shaxsi va bolalar jamoasi bo'yicha qarashlari tizimi (u qarovsiz qolgan bolalar uchun mo'ljallangan bolalar kommunasi rahbari bo'lgan), L.S.Vigotskiy va uning oliy psixik funksiyalar rivojlanishi nazariyasi. Shuningdek, psixolog olimlarning XX asr ikkinchi yarmidagi ishlari – B.G.Ananov, L.I.Bojovich, P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, A.V.Zaporojes, L.V.Zankov, G.S.Kostyuk, N.A.Menchinskaya, N.F.Talizina, D.V.Elkonin va ko'plab boshqa olimlarning yosh va pedagogika psixologiyasi sohasida amalga oshirgan ishlari ham shu jumladan. Bu masala shuningdek, O'zbekiston psixolog olimlari tomonidan ham tadqiq etilmoqda.

Rivojlanish jarayonida faqat bilim va harakat usullarining o'zgarishi, murakkablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar, ya'ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar (o'qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabat),
- 2) faoliyatining psixologik tuzilishi xususiyatlari (motiv, maqsad, ob'ekt) va
- 3) anglash mexanizimining rivojlanish darajasi.

Shunday qilib, bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin: 1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi,

2) egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi,

3) shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi (yo'naltirilganlik, faoliyatning psixologik tuzilishi, anglash va fikrlash). Ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos. Bu yo'llarning barchasi o'zaro bog'liqlik va faqat birgalikdagina **psixik rivojlanish** deb ataluvchi shaxsdagi o'zgarishlar jarayonini tashkil etadi.

Inson psixik rivojlanishining ijtimoiy shartliligi rivojlanish jarayonini bilim va ko'nikmalarning oddiy to'planib borishiga bog'lash mumkinligini anglatmaydi. Inson psixik rivojlanishining ijtimoiy tabiatini hisobga olish mazkur jarayonning murakkabligi va ko'p qirraliligini tushunish imkonini beradi, chunki faqat shunday yondashuvdagina rivojlanish u yoki bu alohida vazifalarning miqdoriy ortishi emas, aksincha insonning umuman rivojlanishi sifatida namoyon bo'ladi.

**Ta'lim va psixik rivojlanish mazmuni.** Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Masalan, shveysariyalik psixolog J.Piaje o'zi olib borgan tadqiqotlar asosida ta'kidlashicha, 7-8 yoshdan kichik bolalar raqam bilan bog'liq faoliyatga qodir emas. Shuningdek, bolaning psixik rivojlanishiga ta'lim mazmunining o'zgarishi va uning ta'siri haqida L.A.Venger, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, V.V.Davidov va boshqalar yozgan.

**Usul va bilimlarni qo'llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi.** Faoliyatning umumiy turi aniqlangach, bolalar tomonidan ayni usullar turli darajada qo'llanilishi mumkin. O'quvchilar faoliyatning nisbatan yuqori shakllari va turlariga (shuningdek, aqliy) masalan, aniq va abstrakt bilimlarni bog'lay olish va o'zaro nisbatini aniqlay bilishga o'rgatilishi lozim.

**Shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi.** Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o'zgaradi, usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi. Mazkur o'zgarishlar ichidan nisbatan umumiy va belgilovchi o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi. Ular quyidagilar:

**1. Bolaning shaxsiy yo'naltirilganlik xususiyatining umumiy rivojlanishi.** Unga uch turni kiritish mumkin: a) ta'limiy yo'nalganlik (yaxshi o'qish, yaxshi baho olish), b) bilim olishga yo'nalganlik (masalalarni hal etish, yangi vazifalar olish), atrofdegilar bilan munosabat.

Shunday qilib, shaxsiy yo'nalganlikni hisobga olish maktab o'quvchilari ta'limi (bilim va usullarni egallash) va tarbiyasini (shaxsiyat rivojlanishi) yanada samarali amalga oshirish uchun birinchi va zarur shartdir.

**2. Faoliyat psixik tuzilishining rivojlanishi (motiv, maqsad, ob'ekt).** Masalan, maktab o'quvchilari bog'chaga sovg'a uchun archa o'yinchoqlarini tayyorlashadi. **Motiv** – turlicha (bolakaylar ko'nglini olish, o'qituvchi talabini bajarish, jarayonning o'zidan qoniqish). **Maqsad** – archa uchun o'yinchoqlar

tayyorlash. **Ob'ekt** – o‘yinchoqlar tayyorlanadigan materiallar.

Har qanday faoliyat o‘z ichiga qator unsurlarni (motiv, maqsad, ob'ekt) oladi. Hammasi birgalikda faoliyat tuzilishining o‘ziga xos xususiyatini yaqqol ko‘rsatib beradi.

**3. Ong mexanizmining rivojlanishi.** Bu fikriy faoliyatning ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o‘zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlashining rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo‘lsa, u o‘zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo‘ladi.

Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

- 1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi,
- 2) o‘zlashtirilgan usullar qo‘llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi,
- 3) shaxsning umumiy xususiyatlarining rivojlanishi.

Bilim, uni qo‘llash mexanizmlari va shaxs umumiy xususiyatlari rivojlanishining pedagogik shartlari ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga bog‘liq. Bola psixik rivojlanishining turli taraflari uchun alohida, aniq pedagogik shartlarni ham inobatga olish muhim. O‘qish jarayonida o‘quvchilar turli o‘quv predmetlari bo‘yicha bilim va harakat usullarini egallaydilar. O‘qishning har xil turlari bo‘yicha yangi bilim va mahoratlarni egallab borish bilan bir qatorda bu shartlar bilan muvofiq ravishda bola psixikasi ham rivojlanib boradi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi. Amerikalik pedagog va psixolog Dj. Dyui - inson tabiatini o‘zgartirib bo‘lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug‘iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo‘lib, ba’zida o‘zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Venalik vrach-psixolog Z.Freyd mazkur oqim namoyandasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o‘zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlodajdodlaridan nasliy yo‘l bilan o‘tgan instinktiv mayllarning namoyon bo‘lishi tufayli faoldir. Z.Freydning fikriga ko‘ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo‘ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog‘laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xuddi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo‘lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ya’ni, jinsiy mayllarni) juda ko‘p jihatdan cheklab qo‘yadi. Oqibatda odam o‘zining ko‘p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo‘ladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo‘qolib ketmaydi, balki bizga noma’lum bo‘lgan ongsizlik darajasiga o‘tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekslar» birlashadilar, go‘yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu «komplekslar»ning namoyon bo‘lishidir. Z.Freydning ta’limotidan, uning



## Yosh davrlari psixologiyasi

---

ochiqdan-ochiq biologizatorlik targ'ibotchisi ekanligini, inson shaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi ilmiy asosga ega emasligini e'tirof etish mumkin. Bunday ta'limotlardan, xususan din homiylari keng foydalanib, insonning taqdiri ana shu ilmlar bilan chambarchas bog'liqdir, deb ta'kidlashadi. Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta'limot - sosiogenetik konsepsiya qobiliyatlarning taraqqiyotini, faqat, tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr fransuz olimi K.Gelvesiy ta'limotidan boshlangan. K.Gelvesiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar, Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq, faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan ta'limotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar, Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan sosiogenetik konsepsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlarida tabiiy fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi, o'sha paytda hammaning diqqat-e'tibori mo'jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu hodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta'sir qilmay qolmadi. Sosiogenetik konsepsiya namoyandalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi, Bu ta'limotga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Chunonchi, angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza taxtaga» o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza taxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib etishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. Har ikkala yo'nalishning namoyandalari, o'z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini yo nasliy, biologik omillar ta'siri ostida, yoki o'zgarmas muhit ta'sirida avvaldan belgilangan va o'zgarmas narsa, deb e'tirof etadilar.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Muhit, ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jihatdan qat'iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Psixik rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir:

1) miyaning biologik, organik yetilishi, uning anatomik-psixologik tuzilishi jihatidan yetilishi;

2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanishi.

O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishning organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan yetakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi. Bu borada nemis psixologi V.Shtern ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan etilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat etilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yo'g'rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan etilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur etilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib etiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir. Ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi.

Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi. Lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsada, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi. Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi «ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yo'nalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri maktab dasturi mazmuniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yuzaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davidov, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, N.A.Menchinskaya, A.A.Lyublinskaya, E.G'.G'ozievlar o'z tadqiqotlarida ta'limning taraqqiyotdagi yetakchi rolini ta'kidlashadi. Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yuzaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug'ilishi, tabiiydir. Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar, ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan,

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundankunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan xatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir, o'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqei to'g'risidagi ichki kechinmasi o'rtasida katta odamlar hayotida to'la huquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi - ziddiyat yo'qoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi. Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'likdir. Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda, psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo'nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilar vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan etilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar, xususiyatlar, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi. Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi - murakkab taraqqiyot jarayonidir.

### **1.3. Psixik rivojlanishning turli xil nazariy yondashuvlari.**

Yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud. Ular inson shaxsini tadqiq qilishga turlicha yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi.

Jumladan:

- biogenetik nazariya;

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

- sotsiogenetik nazariya;
- psixogenetik nazariya;
- kognitiv nazariya;
- psixoanalitik nazariya;
- bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin.

**Biogenetik** nazariyada insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo‘lib, ana shu omil bilan o‘zaro bog‘liqdir. Biogenetik qonunni F. Myuller va E. Gekkel kashf qilgan. Biogenetik qonunga ko‘ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi degan nazariyaga asoslangandir. bu ta‘limotga V.Shtern, S.Xoll, A.Gezell kabilarning tadqiqotlari ham asos bo‘lgan.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko‘rinishi **sotsiogenetik** nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. K.Levin tavsiya qilgan “fazoviy zarurat maydoni” nazariyasi o‘z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K.Levin nazariyasiga ko‘ra, shaxsning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o‘tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat) bilan boshqarilib turadi, bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko‘lamida tayanch nuqtasiga yo‘nalgan bo‘ladi degan g‘oyani ilgari surgan. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko‘ra, inson biologik tur sifatida tug‘ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta‘siri ostida shaxsga aylanadi degan nazariyaga asoslangandir.

Psixologiyada **psixogenetik** yondashish ham mavjud bo‘lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Mazkur yondashishni uchta mustaqil yo‘nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, bu yo‘nalishlar o‘z mohiyati, kechishi va mahsuli jihatidan keskin farqlanadi. Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan boshqa) tarkibiy qismlari: emotsiya, mayl yordamida shaxsning xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri amerikalik psixolog E. Eriksondir. U insonning umrini o‘ziga xos betakror xususiyatlarga molik qo‘yidagi davrga ajratgan, Jumladan:

**Birinchi davr** - go‘daklikda tashqi dunyoga ongsiz “ishonch” tuyg‘usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligi va jonkuyarligidir. Agar go‘dakda ishonchning negizi paydo bo‘lmay, borliqqa ishonchsizlik hissi tug‘ilsa, voyaga yetgan odamlarda umidsizlik vujudga kelishi shubhasizdir.

**Ikkinchi davr** - ilk bolalikda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki, aksincha, ularning teskarisi - uyat va shubha hissi hosil bo‘ladi. Bolada mustaqillikning o‘sishi unga o‘z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, bo‘lg‘usi shaxs xususiyatlaridan tartib va intizom, mas‘uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg‘ulari tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

**Uchinchi davr** - o‘yin yoshi deb ataladi va unga 5–7 yoshli bolalar kiradi. Bu davrda tashabbus tuyg‘usi, qandaydir ishlarni amalga oshirish, bajarish mayli tarkib topadi. Mabodo boladagi xohish-istakni ro‘yobga chiqarish yo‘li to‘siq bo‘lsa, buning uchun u o‘zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda davra, ya‘ni guruh o‘yinlarga, tengqurlari bilan muloqotga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi: bola turli rollar bajarib ko‘rishiga, uning xayoloti o‘shishiga imkon yaratadi. Xuddi shu davrda bolada adolat tuyg‘usi, uni tushunish mayli tug‘ila boshlaydi.

**To‘rtinchi davr** - maktab yoshi boladagi asosiy o‘zgarishlar: ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati omilkorlik va mahsuldorlikdan iboratdir. Bu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham bo‘lib, ular ijobiy xislatlari yetarli bo‘lmasligi, ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni hal qilishda aql-zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o‘zlashtirishdagi qoloqlik va hokazolardir. Xuddi shu davrda shaxsning mehnatga munosabati shakllana boshlaydi.

**Beshinchi davr** - o‘spirinlik betakror xislati, o‘ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o‘spirinlik shaxs sifatida noaniqligi muayyan rolni uddalamaslik, qat‘iyatsizlik singari salbiy sifatlarga ham egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati “rolini kechiktirish”ning o‘zgarishi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarning ko‘lami kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, shuningdek, rollarda o‘zini sinab ko‘rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o‘spirinlarda o‘zini o‘zi anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtni yangicha his qilish, psixoseksual qiziqish, patogen (kasallik qo‘zg‘atuvchi) jarayonlarni va ularning turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini bayon qiladi.

**Oldinchi davr** - yoshlik boshqa jinsga psixologik **yaqinlashuv** va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Bunda ayniqsa, jinsiy mayl alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholikni yoqtirish va odamovilik kabi yoqimsiz xususiyat bilan ham farqlanadi.

**Yettinchi davr** - yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnatda, ijodiyotda, g‘amxo‘rlikda, nasl qoldirishda, tajriba uzatish va boshqalarda) mahsuldorlik tuyg‘usi uzluksiz hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda ayrim jihatlarda turg‘unlik tuyg‘usi salbiy xususiyat sifatida hukm surishi ham mumkin.

**Sakkizinchi davr** - ya‘ni qarilik inson sifatida o‘z burchini uddalay olganligidan, turmushning keng qamrovliligidan qanoatlanish tuyg‘ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida esa hayot faoliyatidan noumidlilik, ko‘ngil sovish tuyg‘ularini aytish mumkin. Donolik, soflik, gunohlardan forig‘ bo‘lish har bir holatga shaxsiy va umumiy nuqtai nazardan qarash bu yoshdagi odamlarga xos eng muhim jihatlardir.

Psixologiyada **kognitiv** yondashish ham mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishda aql-idrok nazariyasi, funksiyalari hamda uning davrlari haqida bo‘lib bu ta‘limotga J. Piaje, Dj. Kelli, L. Kolberg, D. Bromley, Dj. Birrer, A. Vallon, G. Grimm, R. Zazzo kabilarning tadqiqotlari asos bo‘lgan.

## Yosh davrlari psixologiyasi

Psixologiyada **psixoanalitik** nazariya ham mavjud bo'lib, shaxsning xatti-harakatlari biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqishi, inson xulqi va motivlar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilovchi harakatga doir ta'limotlarga asoslangandir. Z.Freyd o'zining "Men va U" asarida inson psixikasida uch tarkibiy komponentni ajratadi: U (**Id**), Men (**Ego**) va Ahloqiy Men (**Super ego**). "U" ongsiz mayl, qiziqish, intilishlarni o'z ichiga oladi. «Men», aksincha, reallik tamoyilidir. "Super ego" esa insonning sotsial me'yorlarni o'zlashtirishi natijasida paydo bo'ladi. Mazkur me'yorlar ham inson psixikasida ongsiz darajaga o'tib, vijdon va aybdorlik kabi tuyg'ularning kelib chiqishiga olib keladi degan nazariyani ilgari surgan. Z.Freyd psixoanaliz asoschisi hisoblanadi. Ilk marotaba u "Psixoanaliz" tushunchasini 1896- yil 30-martda "Nevrologiya jurnalida" chiqqan fransuz tilidagi nevrozlarni kelib chiqishi to'g'risidagi maqolasida ishlatgan<sup>4</sup>.

Psixologiyada **bixevioristik** nazariya ham mavjud bo'lib, XX asr boshlarida vujudga kelgan edi. Bixeviorizm yo'nalishi hayvonlarda o'tkazilgan kuzatishlar natijasiga asoslangan bo'lib, uning namoyondalari E.Torndayk va Dj.Uotsonlar hisoblanadi. "Bixeviorizm" ingliz tilida "xulq-atvor" degan ma'noni bildiradi. Bu oqim psixika va ongni inkor qilib, xulq bilan tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni, qonuniyatlarni tekshirishni taklif qiladi. E.Torndayk va Dj.Uotsonlarning fikricha, psixologiyaning vazifasi stimulg'a (qo'zg'atuvchi), ya'ni sezgi a'zolariga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchiga o'q otish, unga qanday javob reaksiyasi bo'lishini, yoki bunday reaksiyani qanday stimulg'a tug'dirishini oldindan aytib bera olishdan iborat. Bixevioristlarning formulasi "S -> R" dir. Keltirilgan nazariyalar orqali psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalashda o'ziga xos mustaqil nazariyalarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab J.Piaje, A.Vallon, A. Gazella, D.B.Elkonin, A.V.Zaparojes, P.S.Galperin, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananev, A.N.Leontev, L.I.Bojovich, V.V.Davidov, M.I.Lisina, A.V.Petrovskiy, singari yirik psixologlarning asarlarida o'z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug'ullanuvchilar safi ortib bordi. Mamlakatimiz psixolog olimlari M. G. Davletshin, N.S. Safojev, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, G'.B.Shoumarov, E.G'oziev, V.Karimova, Z.T.Nishanova, B.Qodirov, A.M. Jabborov, L.S.Tusunov, Yu.Asadov, A.Rasulov, G.To'laganova, P.S.Ergashev, O.E.Hayitov, F. A. Akramova, G.O.Ochilovalar tomonidan yosh davrlarini tasniflash muammosi, psixik rivojlanish qonuniyatlari doirasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda yosh davrlarini tabaqalanish yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatning xosil bo'lishi bilan ajralib turadi.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok

<sup>4</sup> B.A. Farfiyev., U.N.Nurullaeva Sotsiologiya tarixi uslubiy qo'llanma – Toshkent, 2009.-B 111-113 s.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

funksiyalari xamda uning davrlari xaqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini qo'yidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

- 1) sensomotor intellekti - tug'ilgandan 2 yoshgacha;
- 2) operatsiyagacha tafakkur- davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha;
- 3) aniq, operatsiyalar davri - 7, 8 yoshdan - 11, 12 yoshgacha;
- 4) rasmiy oneratsiyalar davri.

Fransuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini qo'yidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) xomilani ona qornidagi davri;
- 2) impulsiv harakat davri - to'g'ilgandan 6 oylikkacha;
- 3) xis-tuyg'u davri (emosional) - 6 oylikdan 1 yoshgacha;
- 4) sensomotor (idrok bilan xarakatning tuyg'unligi) davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 7 yoshgacha;
- 7) jinsiy etilish va o'spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

L. S. Vigotskiy rivojlanishning yoshga bog'liq davrlashtirish muammosini "barcha bolalar psixologiyasi uchun markaz" va "amaliyotning barcha savollariga kalit" deb atagan. U vaqtda mavjud bo'lgan davrlashtirish chizmasini tahlil qilib, L.S.Vigotskiy ularni tuzishning uch usulini ajratgan.

1) Bola psixikasini rivojlanishi bilan har tomonlama bog'liq bo'lgan, boshqa jarayonlarni zinama-zina qurish asosida bolalikni davrlashtirish.

Misol uchun, biogenetic tamoyilga muvofiq ibtidoiy bosqich, hayvon psixikasi bosqichlari ajratiladi.

2) Bolalikni ajratishda asos qilib, shartli mezon sifatida rivojlanishning biror bir belgisi yoki jixati (tomoni) olinadi. (masalan, P.P. Bilonskiyning davrlashtirishida dentitsiya - tishlarni chiqishi va almashinishi; Z.Freyd ta'limotida jinsiy rivojlanish).

3) A. Gazella ishlaridagi kabi rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini fenomenologik izohlashga va qonuniyatlarni ajratishga urinish amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy bola rivojlanish jarayonining mazmun-mohiyatini qamrab oluvchi, haqiqiy ilmiy-psixologik davrlashtirish tuzilishi kerak bo'lgan tamoyillarni taklif qilgan. Davrlarni ajratish mezoni rivojlanishga nisbatan ichki bo'lishi kerak. "Faqatgina rivojlanishni o'zining ichki o'zgarishlari, uning kechish jarayonidagi burilishlar va o'zgarishlargina bola shaxsining shakllanishini asosiy davrlarini aniqlash uchun ishonchli asos bo'la oladi".

Mezon ob'ektiv bo'lib, yosh chegaralari doirasi erkin va shartli qo'yilishi kerak emas. Mezonni qandaydir bir belgiga ko'chirib bo'lmaydi, chunki rivojlanish jarayonida belgining muhimligi va ko'rsatgichlari yoshdan yoshga o'tishda o'zgaradi. L.S.Vigotskiy yosh davrlarda taraqqiy etuvchi psixik rivojlanish xodisasiga nisbatan asosiy yangi yondashuvni ishlab chiqib, yosh davrlar psixologiyasining asosini qo'ydi.



## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Odatda psixologiyada o'rganiladigan alohida psixik jarayonlar va (idrok, diqqat, tafakkur) funksiyalarning yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish o'rniga L.S.Vigotskiy birinchi o'ringa "psixologik yosh" tushunchasini qo'yishni va bola rivojlanishi taxlilining "birligi" sifatida rivojlanishining yoshga oid davrlarini talqin qilishni taklif qilgan.

L.S.Vigotskiy tomonidan yozilgan "Yosh davriga oid bo'lgan muammo" asarida, ushbu fikrni qo'yidagicha izoxlagan: "Yosh davrlari yaxlit dinamik tuzilishini rivojlanishning har bir qism sohalarini roli va solishtirma og'irligini aniqlaydigan tarkibni o'zida aks ettiradi". L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, har bir psixologik yosh, har bir yosh davrining boshlanishida shakllanuvchi, rivojlanishning ijtimoiy holati bilan tavsiflanadi. Rivojlanishning ijtimoiy holati - bu "mutloq alohida, ushbu yosh uchun o'ziga xos, bola va uni o'rab turgan voqelik o'rtasidagi yagona va qaytarilmaydigan, eng avvalo ijtimoiy munosabatlardir"

L.S.Vigotskiy muhitni obsalyut (absalyut-idealistik falsafada - borliqning abadiy, o'zgarmas, bemakon ibtidosi - ruh) ko'rsatkichlarda emas, balki, bolaning o'zini kechinmalari bilan bog'liqlikda, muhitni bolaga munosabatidan kelib chiqib, talqin qilish kerakligini ta'kidlagan. "Rivojlanishning ijtimoiy holati" tushunchasi tashqi muhit va bolaning ichki dunyosini o'zaro aloqasini betakror o'ziga xosligini, ya'ni ijtimoiy muhit va motivatsion ehtiyoj sohalarini ifodalaydi. Bundan tashqari, psixologik yosh yangi tuzilishlar bilan ham tavsiflanadi. Yoshga oid yangi tuzilishlar - bu yoshga bog'liq rivojlanish natijasi, mahsuli va bir vaqtning o'zida keyingi rivojlanish zaminidir.

Psixologik yangi tuzilmalar bolaning yangi shaxs tuzilishi turini ushbu bosqichda birinchi marotaba yuzaga kelayotgan hamda bolaning ongi, uning muhitga munosabatini, uning tashqi va ichki hayotini, ushbu davrdagi uning butun rivojlanish jarayonining eng asosiysi va muhimini aniqlaydigan psixik va ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

L.S.Vigotskiy ong va shaxs tuzilmasidagi o'zgarishlarni, markaziy va ikkilamchi darajali yangi tuzilmalarni farqlagan. Shunday qilib, psixologik yosh tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Rivojlanishning ijtimoiy holatini aniqlovchi;
- 2) "Bolaning turmush tarzi yoki jarayonda rivojlanuvchi uning ijtimoiy borlig'i;
- 3) Ong va shaxs sohasidagi yangi tuzilmalar L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, ongning yangi tuzilishi so'zsiz, hali tashqi voqelikni idrok qilishning yangi karakterini, ham undagi faoliyatni anglatadi. Ushbu davrda yuzaga kelgan yangi tuzilmalar rivojlanishning ijtimoiy holatini o'zgartiradi: bola kattalar bilan boshqa tizimdagi munosabatni talab qilishni boshlaydi, o'zi ham dunyoga boshqa ko'z bilan qaraydi, kattalar yordamida o'zining ular bilan bo'lgan munosabatini o'zgartiradi.

Boshqacha qilib aytganda, vaqt o'tishi bilan psixologik yangi tuzilmalar jamlanib, asta-sekin rivojlanishning eski ijtimoiy xolati bilan qarama qarshilikka keladi, uning buzilishiga va keying yosh davrida bolaning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochuvchi, yangi munosabatlarni olishga olib keladi. Shu tarzda

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

psixologik yoshning almashinuvi sodir bo‘ladi. L.S.Vigotskiy so‘zlari bilan aytganda, yosh rivojlanishining dinamikasi shundadir.

D.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruxiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini qo‘yidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.
2. Gudaklik. davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, Bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr- 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy etilish) davr - 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o‘zining yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta’riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ag‘amiyatga molik mulohazalar bildirgan, Birok, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahsli urinlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to‘g‘risidagi mulohazali va olg‘a surgan g‘oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkonin (1904-1984) bolada insoniyatga xos bo‘lgan qobiliyatlar rivojlanishining asosi sifatida bola tomonidan nasliy insoniy faoliyat usullarini o‘zlashtirish muammosini o‘rgangan.

D.B.Elkonining bola tug‘ilgan onidanoq ijtimoiy mavjudot hisoblanishini ta’kidlab, “jamiyatda bola” (bola va jamiyat emas) formulasinigina tan olgan. Bolaning bilish jarayoni ikki turdagi munosabatlar tizimida kechadi: “bola-ijtimoiy predmet” va “bola-ijtimoiy ulg‘aygan inson”. “Ijtimoiy ulg‘aygan inson”, predmetlar bilan “harakatning ijtimoiy ishlab chiqilgan usullari”, hayotning mazmun va me’yorlarini gavdalantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyat asoslarini egallagan sari bola hayot sharoitlariga moslashmaydi, balki faoliyatning faol sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi va faoliyatni amalga oshirish jarayonida unda turli xildagi psixik yangi tuzilmalar yuzaga kelib, rivojlanadi.

Bolaning to‘g‘ilganidan to 17 yoshigacha bo‘lgan psixik rivojlanishining keng tarqalgan davrlashtiruvchi D.B.Elkonin tomonidan yaratilgan bo‘lib, “Bolalik yoshidagi psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi” maqolasida taqdim etilgan. D.B.Elkonin bolalarning rivojlanishida, shunchaki vaqt oraliqlarini emas, balki yosh davrlari, bosqichlarini ajratishni zarur deb hisoblagan.

D.B.Elkonin yoshni - “bola rivojlanishining umumiy egri chizig‘ida uning o‘rni va funksional ahamiyati bilangina muhimligi belgilanadigan, nisbiy, alohida davr” sifatida ko‘rib chiqqan. Har bir psixologik yosh o‘zaro murakkab munosabatlarda bo‘lgan ko‘rsatgichlar bilan tavsiflanadi:

- 1) Rivojlanishning ijtimoiy holati.
- 2) Yetakchi faoliyat.
- 3) Asosiy yangi tuzilmalar.

Rivojlanishning ijtimoiy holati bolaning ijtimoiy sharoitlardagi haqiqiy

o'zni, uning ularga munosabati va undagi faoliyat harakteri sifatida aniqlanadi. Ma'lum bir ijtimoiy vaziyatdagi bolaning hayoti bilan, uning ikkinchi muhim tavsifini tashkil etuvchi ushbu yosh uchun harakterli bo'lgan bolaning faoliyati chambarchas bog'liq.

A.N.Leontev tomonidan ishlab chiqilgan etakchi faoliyat tushunchasidan D.B.Elkonin psixologik yoshlarni ajratish mezonini sifatida foydalangan. Har bir yoshda faoliyatning turli xil ko'rinishlari tizimi mavjud, lekin etakchi unda alohida o'rinni egallaydi. Yetakchi faoliyat birdan tayyor shaklda yuzaga kelmaydi, balki shakllanish rivojlanishning uzoq yo'lini (kattalar rahbarligida) bosib o'tadi.

Yetakchi faoliyat – bu bolaning ko'p vaqtini oluvchi faoliyat emas. Bu psixik rivojlanish uchun uning ahamiyatiga ko'ra, asosiy faoliyatdir: - etakchi faoliyat shaklida yuzaga keladi va uning ichida faoliyatni boshqa yangi turlari farqlanadi; (masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi o'yinda o'rganish elementlari birinchi marta yuzaga keladi va shakllanadi); - etakchi faoliyatda ayrim (xususiy) psixik jarayonlar shakllanadi yoki qayta tuziladi (o'yinda bolaning faol tasavvur jarayonlari shakllanadi); - etakchi faoliyatdan, rivojlanishning ushbu davrida kuzatiladigan bola shaxsining o'zgarishlari bog'liqdir. (o'yinda bola inson xulq atvorining motiv va me'yorlarini egallaydi, bu esa shaxs shakllanishining muhim tomonini tashkil etadi).

D.B.Elkonin bolalikdagi psixologik yoshlar ketma - ketligini qo'yidagicha taqsimlagan:

1. Gudaklik davri - tug'ilgandan 1 yoshgacha - etakchi faoliyat -bevosita emosional muloqot;
2. Ilk bolalik davri -1 yoshdan 3 yoshgacha - etakchi faoliyat -predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;
- 3.Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli uyinlar;
- 4.Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o'qim;
- 5.Kichik o'smirlilik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning ehtirolarga berilish,(dilkash, samimiy) muloqot;
6. Katta o'smirlilik yoki ilk o'spirinlik davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - etakchi faoliyat - uqish, kasb tanlash davri,

D.B.Elkonin tasnifini ko'pchilik psixologlar tomonidan e'tirof etilsada, biroq, uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud. Umuman D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o'rin tutadi.

Bir etakchi faoliyatning boshqasi bilan almashinuvida inqiroz sodir bo'ladi (masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi o'yin faoliyatini kichik maktab yoshidagilar uchun xos bo'lgan o'quv faoliyati bilan almashinuvi). Mazmun - mohiyatidan (tuzilishidan) bog'liqlikda munosabatlar inqirozi (3-11yosh) va dunyoqarashlar inqirozi (1-7yosh) farqlanadi. D.B.Elkonin o'zining bolalikdagi psixik rivojlanish chizmasida ontogenezda faoliyatning ikki turini almashinishi, davriy almashinuv g'oyasini ishlab chiqqan. Ushbu qadam predmetli harakatning tuzilishi va shakllanishiga bag'ishlangan.

A.V.Zaparojes va P.S.Galperin ishlari bilan tayyorlangan edi. A.V.Zaparojes

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

psixik jarayonlarni orientatsion jarayonlarning bir ko‘rinishi deb hisoblagan. Misol uchun, idrok - bu predmetlar xususiyatlari va sifatlariga diqqatni qaratish, tafakkur - ularning aloqalari va munosabatlariga diqqatni qaratish, emotsiya esa – shaxs ahamiyatiga diqqatni qaratishdir. A.V.Zaparojes ixtiyoriy harakatlar va ularni bolalarda shakllanishi tadqiqotlarida, harakatning etakchi qismi sifatida orientatsiya roli va orientatsiyani bir qancha bosqichlarni-tashqi yo‘nalgandan, ichki yo‘nalganga bosib o‘tishi haqidagi xulosaga keldi. P.Ya.Galperin ichki, aqliy faoliyatning rivojlanishini o‘rgangan. P.Ya.Galperin harakatning uch komponentidan (tarkibiy qismidan) - orientatsiya, bajarish va nazoratdan, ko‘proq ahamiyatga ega deb orientatsiyani hisoblaydi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan orientatsiya asosi birinchi o‘rinishdayoq harakatni to‘g‘ri bajarish imkonini beradi. Asta-sekin (bosqichma-bosqich) harakatlar interiorizatsiyasi va uni ichki, aqliy harakatga aylanishi sodir bo‘ladi. Shunday qilib, har bir inson harakatida uning ikki tomoni, ikki qismini orientatsion va bajarishni ajratish mumkin. Orientatsiya fazasi (davri) bajarishdan oldin kechadi. U ayniqsa yangi predmetli harakatni egallashning boshlang‘ich bosqichlarida keng tashkil etiladi. Harakatning aynan orientatsion qismi interiorizatsiyaga uchraydi va psixikaning funksional rivojlanishining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Faoliyatda ikki - motivatsion va operatsion tomonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin; Ular bir tekis rivojlanmaydi, xususan har bir yosh davrida faoliyatning alohida tomonlarini rivojlanish sur‘ati o‘zgaradi.

D.B.Elkonin faraziga muvofiq, barcha bolalik yoshlari ikki turga bo‘linishi mumkin:

- birinchi turdagi yoshlarda (bu go‘daklik, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalik, o‘smirlik yoshi) bolada ko‘proq biror faoliyatning ijtimoiy motivatsion tomonlari rivojlanadi; bolaning munosabatlar, motivlar inson harakatlari mazmuni tizimidagi orientatsiyasi shakllanadi;

- birinchi turdan keyingi, ikkinchi turdagi yoshlarda (bu ilk bolalik, kichik maktab yoshi, ilk o‘spirinlik) bolada ushbu faoliyatning endi operatsion tomoni rivojlanadi.

Bir yosh davrining (bolalarda ehtiyoj va motivlar ko‘proq shakllanadi) ikkinchi boshqa yosh davri bilan (bolalarda u yoki bu faoliyatning aniq operatsiyalari shakllanadi) qonuniyatli almashinuvi sodir bo‘ladi. Misol uchun, go‘daklikda kattalar bilan emotsional muloqotta predmetli olamni egallash va ishbilarmon - hamkorlik ehtiyojlari va motivlari yuzaga keladi, ular muvofiq keluvchi operatsiyalar shakllanganda, ilk yoshda, predmetli faoliyatda amalga oshadi. Biroq, maktabgacha tarbiya yoshida o‘yin faoliyatida keyingi kichik maktab yoshida etakchi bo‘ladigan faoliyatning ehtiyoj va motivlari ko‘proq rivojlanadi. Shuning uchun ikki ma‘lum bir turdagi yoshlar bir biri bilan o‘zaro bog‘langandek va bu “bog‘lanish” (yoki D.B.Elkonin so‘zlari bilan aytganda “era”) butun bolalik davomida amalga oshadi (yoki davriy takrorlanadi).

Shunday qilib, D.B.Elkonin orientatsiyaning ilgarilab rivojlanish qonuniyati bajaruvchi qismiga nisbatan faqatgina funksional emas, balki psixikaning yosh davriga bog‘liq rivojlanishida ham ta‘sir ko‘rsatadi deb taxmin qiladi: bolaning rivojlanish jarayonida avval faoliyatning motivasion, so‘ngra operatsional texnik

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

tomonlarini egallash sodir bo‘ladi. D.B.Elkonin nuqtai nazariga ko‘ra, faoliyatning motivatsion va operatsion tomonlarini rivojlanish darajalari o‘rtasida doimiy ravishda uzilish yuzaga keladi, biri oldinga chiqib boshqasidan o‘zib ketadi hamda orqada qolgan tomon rivojlanishning zarur darajasiga etishi uchun faoliyatni o‘zgartirishi zarur. Rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar bola tomonidan faoliyatning predmetli va motivatsion tomonlarini egallash jarayonida shakllanadigan qarama-qarshilik (ziddiyat) bilan bog‘liq. D.B.Elkonin tomonidan shakllantirilgan, bolaning psixik rivojlanishidagi davriylik farazi L.S.Vigotskiyning g‘oyalari ijodiy rivojlantiradi, u bolada nafaqat bilish, balki shaxsning motivatsion- ehtiyoj sohasi ham shakllanishini, bola tomonidan insonlar va predmetlar olamini o‘zlashtirilishini tushuntirib, psixik rivojlanishda o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmini ochib berdi.

Yosh davrlar psixologiyasida bolalik va bola shaxsining rivojlanishida biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar ta‘lqini psixolog olimi A.A.Lyublinskayaning xissasi beqiyosdir.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyandasi A.A.Lyublinskaya inson kamolotini yosh davrlarini ajratishda faoliyat no‘qtai nazaridan yondashib, qo‘yidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi:

1. Chaqaloqlik davri - tugilgandan bir oylikkacha;
2. Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 yoshgacha;
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr - 1 yoshdan 3 yoshgacha;
4. Maktabgacha tarbiya davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha;
5. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11,12 yoshgacha;
6. O‘rta maktab yoshi davri (o‘spirin) - 13 eshdan 15 yoshgacha;
7. Katta maktab yoshi davri - 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Pedagogik psixologiyaning taniqli namoyandasi V.A.Kruteskiy insonning ontogenetik kamolotini o‘z nazariyalarida keltirib o‘tgan.

V.A.Kruteskiy yosh davrlarni qo‘yidagi bosqichlardan iboratligini ta‘kidlaydi:

1. Chaqaloklik (to‘g‘ilgandan 10 kunlikkacha);
2. Gudaklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);
3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
4. Bog‘chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha);
5. Bog‘cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdesh 11 yoshgacha);
7. O‘smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);
8. Ilk uspirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha).

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko‘proq ma‘lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, etuklik, qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to‘g‘risida nazariy va amaliy ma‘lumotlar etishmaydi. Shunga qaramay o‘rta maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya faning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik no‘qtai nazardan yondashadi.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

A.V.Petrovskiy yosh davrlarni qo‘yidagi bosqichlardan iboratligini ta’kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) - tug‘ilganidan 3 yoshgacha.
2. Bog‘cha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha,
3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.
4. O‘rta maktab yoshi (o‘smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha,
5. Yuqori sinf o‘quvchisi (ilk uspirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

A.V.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo‘lsada, kamolotning oraliq, bosqichlarini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, ushbu ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, u qanday bulishidan qa’tiy nazar, har ikkala yunaliganing ham oraliq, jabhalari bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Ma’lumki, har bir yosh davr, o‘ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o‘zgarishi, ta’lim va tarbiya shakllarining o‘zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning etilishi singari jorayonlarni kiritish mumkin.

Moskvada yosh fiziologiyasi va jismoniy tarbiya instituti tomonidan 1965-yilda yoshga oid davriylik muammolariga bag‘ishlab o‘tkazilgan simpozium barcha ilmiy, ta’lim, davolash va boshqa tashkilotlarga quyidagi yoshga oid davriylik sxemasidan foydalanishni tavsiya qilgan:

1. Yangi to‘g‘ilgan davr - birinchi 10 kun;
2. Go‘daklik yosh davri - 1 yoshgacha;
3. Ilk bolalik davri - 1-3 yosh;
4. Birinchi bolalik davri - 4-7 yosh;
5. Ikkinchi bolalik davri - o‘g‘il bolalar 8-12 yosh, qiz bolalar 8-11 yosh;
6. O‘spirinlik davri - o‘g‘il bolalar 13-16 yosh, qiz bolalar 12-15 yosh;
7. Navqironlik davri - o‘g‘il bolalar 17-21 yosh, qiz bolalar 16-20 yosh;
8. Yetuklikning birinchi davri: erkaklar 35 yoshgacha, ayollar 21-35; ikkinchi davr: erkaklar 36-60 yosh, ayollar 36-55 yosh;
9. Qarilik yoshi-erkaklar 61-71 yosh, ayollar 56-74 yosh;
10. Keksalik yoshi-erkaklar va ayollar 90 yoshgacha;
11. O‘zoq umr ko‘ruvchilar - erkaklar va ayollar 90 yosh va undan yuqori

Umuman, psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning ilmiy-metodologik negizga ega bo‘lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan.

Yuqorida olimlar tomonidan keltirilgan yosh davrlari va tabaqalanishiga doir nazariyalar o‘sha davrda yashagan inson organizimining rivojlanishi, biogenetik va sosiogenetik omillar, akseleratsiya jarayonlarga asoslangan yondoshuv demakdir. Akseleratsiya yosh avlodning ruhan va jismonan tez rivojlanishidir. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko‘p mamlakatlarda bolalarning bo‘yiga o‘shini tezlashganligi aniqlangan va bu haqidagi ma’lumotlar 1876-yilda matbuotda e’lon qilingan. 1935-yilga kelib nemis olimi O.Kox rivojlanishdagi bu tezlashuvni akseleratsiya deb atagan. Akseleratsiya -lotincha so‘z bo‘lib, asceles - tezlashuv degan ma’noni bildiradi. Akseleratsiya yosh avlodning oldingi tengdoshlariga nisbatan ruhan va jismonan tez rivojlanishidir. Akseleratsiya 100 yil ya’ni bir asr

## Yosh davrlari psixologiyasi

ichida yaqqol ko‘zga tashlanganligi uchun uni keng ma‘noda “sekulyaoniy trend” ya‘ni asriy tendensiya deyiladigan bo‘ldi. Keyingi 100-150 yil ichida er yuzida akseleratsiya jarayonlari kuzatilmoqda jumladan O‘zbekistonda ham.

Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o‘zgarishlar, ya‘ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bola shaxsini yo‘naltirishdagi umumiy xususiyatlar (o‘qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabat);
- 2) faoliyatining psixologik tuzilishi xususiyatlari (motiv, maqsad, ob‘ekt);
- 3) anglash mexanizimining rivojlanish darajasi.

Shunday qilib, bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo‘lish mumkin:

- 1) ta‘lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi;
- 2) egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi;
- 3) shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi (yo‘naltirilganlik, faoliyatning psixologik tuzilishi, anglash va fikrlash).

Keltirilgan rivojlanish yo‘llarining har biri o‘ziga xos. Bu yo‘llarning barchasi o‘zaro bog‘liqlik va faqat birgalikdagina **psixik rivojlanish** deb ataluvchi shaxsdagi o‘zgarishlar jarayonini tashkil etadi.

### 1.4 Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari.

**Metod** - (YUNONCHA methods - tadqiqot, tekshirish) - nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi degan ma‘noni anglatadi.

**Kuzatish metodi.** Kishining har kungi psixik faoliyatini odatdagi hayot va sharoitlarida tahlil qilishdan iboratdir.

Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatiladigan ob‘ekt tanlanadi;
- v) sinaluvchining yoshi, jinsi xasida ma‘lumotlar to‘planadi;
- g) tadqiqot o‘tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- d) kuzatish qancha davom etishi belgilanadi;
- ye) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o‘yin, o‘qish, mehnat, sportda), amalga oshirilishi tavsiya etiladi;
- yo) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tayinlanadi;
- j) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) taxt qilinadi.

O‘quvchini kuzatish orqali undagi emosional o‘zgarishlarni aniqlashdan tashqari, o‘quvchining musoboqadagi xavfli vaziyatlarda aql-zakovatining ichki mexanizmlari vujudga kelishi va kechishi yuzasidan ma‘lumotlar olindi. Natijada o‘quvchining musoboqaga jismoniy va psixologik tayyorgarlik holati qay tarzda, qay tezlikda, qay shaklda ro‘y berishi kuzatiladi. Tajribalarimizning ko‘rsatishicha, kuzatish yordamida sport bilan shug‘ullanayotgan o‘quvchining chaqqonligi, chidamliligi, tashabbuskorligi, sport musoboqasi jarayonida fikrning bir ob‘ekti yo‘naltirilganligi, tashqi ta‘sirga berilmasligi, yuz alomatlaridagi tashvish va iztirob, o‘z-o‘zicha ichki nutqning paydo bo‘lishi, o‘z raqibiga tomoshabin va

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

xakamlarga sinchkovlik bilan qarashi, g'azab va xursandlik kabi ruhiy kechinmalarni kuzatish orqali ilmiy-uslubiy ma'lumotlarni to'plash mumkin.

**Eksperiment metodi (tajriba).** Yangi psixologik faktlarga ega bo'lishning ob'ektiv usullaridan biri - eksperiment metodidir. Kuzatishdan farqi, eksperiment o'tkazuvchi sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi, sun'iy vaziyat paydo qilinishi mumkin. Bu metod inson psixikasini chuqur, aniq tadqiq qilishda eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shaqllanishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi.

Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti. Tabiiy eksperiment pedagogik-psixologik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. (Sinfda sun'iy, odatdagidan boshqacha vaziyat va muhit yaratib kuzatish). Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda Aleksey Fedorovich Lazurskiy (1874-1917) ishlab chiqqan. Bu metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasa xodimlarining, o'qituvchilarning, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlarini, o'zaro munosabatlar, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliliklari muammolarini hal qilishda ko'proq foydalanish mumkin. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan holatlarda qo'llanilishi mumkin. Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goho guruhiy) shaqlda sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asbob-uskunalar, yo'l - yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, anomaloskop, taxistaskop, audometr, esteziometr, elektrotiogramma, elektroense - falogramma kabilardan ham foydalaniladi. Laboratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitida maxsus psixologik asboblarning yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining hatti-harakatlari yo'l - yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret nimani va nima maqsadda tadqiq qilishayotganligini bilmasa ham) kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalari, idrok, xotira va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishining (uchuvchi, haydovchi, operator singlarilarning) kutilmagan, tasodifiy (ekstremal) vaziyatdagi modellari yaratiladi.

Tajriba aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshirish qismlariga bo'linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat, o'yin, mehnat, o'kish kabi faoliyat turlarida tadqiq qilinadi. Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni shaqllantirish shuningdek ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani yo'l-yo'riq va usulni o'rgatish rejalashtiriladi. Tekshirish qismida tarkib toptiruvchi bosqichda shaqllantirilgan usul, vosita, yo'l - yo'riq,



malaka va shaxs fazilatlarini darajasini, barqarorligini aniqlash, ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o'lchanadi.

Yig'ilgan ma'lumotlar miqdoriy - statistik usulda qayta ishlanib, turmushga tatbiq qilinadi. Inson psixikasi xususiyatlarini tadqiq qilish orqali muxandis psixologlar eng zamonaviy elektron qurilmalar, robotlar yaratish ustida ish olib bormoqdalar.

**Anketa metodi.** Kishilar psixikasini ommaviy so'roq asosida o'rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va xodisalarning munosabatlari o'rganiladi.

**Suhbat metodi** erkin, nutqiy munosabat tufayli olingan kishi psixik faoliyatining xulosasini tekshirish demakdir.

Hozirgi davrda insonning rivojlanishi yanada jadallashtiruvchi vositalar mavjud va uning aqliy o'sish darajasini test (sinov)lar bilan aniqlash mumkin.

**Test metodi.** Test - inglizcha, "*tekshirish*" degan ma'noni anglatadi, Shaxsga, aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, misol yoki jumboqlar test deb ataladi.

**Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi** – Shaxsda ta'lim, mehnat, sport faoliyatlarini tahlil etib, xulosaga kelish va diagnoz qo'yish usulidir. Masalan o'quvchilar yozgan insho tahlil etilib, o'qituvchi uning ijodiy qobiliyatini, so'z boyligi, yozma nutqining rivojlanish darajasi, obrazli tafakkuri haqida xulosa chiqarishi mumkin. Xuddi shuningdek, sport faoliyatidagi mashg'ulot, musobaqa, musobaqa oldi va musobaqadan keyingi holat natijalariga qarab o'quvchining individual psixik xususiyatlari, qobiliyatlari haqida ma'lumot to'plash mumkin.

**Biografik (tarjimai hol) metodi.** Inson psixikasidagi ayrim o'zgarishlarni to'liqroq o'rganish maqsadida qo'llaniladi. Esdaliklar, kundaliklar, badiiy asardagi tavsiflar, baholar, magnitofon yozuvlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalash, nazorat qilish, idora etish, o'zining uslubini yaratish, kamolot cho'qqisiga erishish jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

**Sosiometriya metod.** Mazkur metod birinchi bo'lib amerikalik psixolog Dj. Moreno tomonidan taklif etilgan. Bu metodning mohiyati, inson u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha guruh a'zolarini tanlaydi. Tanlovlar asosida shaxsning guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rni haqida xulosa qilinadi.

Sosiometriya metodi yordamida guruh a'zolari o'rtasidagi simpatiya yoki antipatiyani aniqlash mumkin. Sosiometriya metodini operativ tarzda o'tkazish, uning natijalarini esa matematik qayta ishlash va grafik ravishda ifodalash mumkin<sup>5</sup>. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasida bevosita emosional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini ulchashda qo'llaniladi.

---

<sup>5</sup> B. N. Sirliev, O. A. Tursunova. Yosh davrlari va differensial psixologiya: Ma'ruzalar kursi / – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 279 b.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Psixologiyada tadqiqot metodi tushunchasi konkret ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Ana shu konkret metodikalarda o'z-o'zidan ravshanki metodologik prinsiplar amalga oshiriladi va faqat mazkur muammo uchun emas, balki bilishning boshqa ko'plab muammolari uchun ham umumiy bo'lgan usullari yuzaga chiqadi.

Lekin konkret metodikalarning o'ziga xosligi eng avvalo ular vositasida hal etilayotgan ilmiy vazifaning qanday xarakterda bo'lishi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan konkret psixologik metodikalar haddan tashqari ko'pdir. Ularning shaqlari ham juda turli - tuman bo'lib, psixologiyaning va muammoning muayyan tadqiqot usulini, ya'ni konkret metodikasini talab qilgan sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shu bilan birga konkret psixologik metodikalarning ko'pchiligi uchun xos bo'lgan baa'zi umumiy belgilarni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin buni normal rivojlangan va aqliy jihatdan zaif bolalarda, rivojlanishdan orqada qolganlarda yoshga taalluqli tafovutlarni o'rganish vazifasi qo'yilgan vaqtlarda ko'rish mumkin.

Qaysi metod qo'llanilishidan qat'iy nazar barcha tadqiqot to'rt bosqichda olib boriladi:

Birinchi bosqich - tayyorgarlik bosqichi. Unda har xil vositalar yordamida material o'rganiladi, dastlabki ma'lumotlar to'planadi, (o'quv mashg'ulotlari va mehnat faoliyati chog'ida, turmushga, ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatish, maxsus savollar yozilgan anketalarga olingan javoblar, shaxs haqidagi tavsifnomalar va guvohlarning bergan ko'rsatmalari, shaxs faoliyatining mahsulot namunalari, masalan yozma ishlari, daftarlari, tayyorlagan buyumlari-o'yinchoqlar maket yoki modellar tikkan kiyimlari) qarab chiqiladi. Biografik ma'lumotlar aniqlanadi anamnez to'planadi, ya'ni tadqiq qilinayotgan faktning sodir bo'lishiga qadar mavjud shart-sharoitlar tariflanadi va hokazo. Birinchi bosqich yakunida tadqiqotchi o'z taxminining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida tasavvurga, nima qilish, nimadan boshlash haqidagi gipotezaga ega bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - eksperimental (tajriba) bosqichi bo'lib, bunda tadqiqotning konkret metodikasi amal qiladi va o'z navbatida bu bosqich birin-ketin qo'llaniladigan qator bo'g'inlarga - eksperiment seriyalariga bo'linadi. Masalan, diqqatni o'rganishda qo'llanadigan Burdon jadvali bilan qilinadigan tajribani ko'rishimiz mumkin. Harflar qalashtirib joylashtirilgan varoqdan aytilgan harflarni har daqiqada nechtadan o'chirish, turli guruhdagilarni o'chirishi va hokazalarni ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi - tadqiqot ma'lumotlarini sifat jihatidan qayta ishlashdir. U psixologiyaning matematik appartini - dastlab ilgari surilgan gipotezaning tasdig'i tarzida olingan xulosalarning haqqoniyliligi xaqida hukm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statistik usullarni va ehtimollik nazariyasining asosiy qoidalarini qo'llashning taqozo qiladi.

Tadqiqotning to'rtinchi bosqichi - olingan ma'lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, gipotezaning to'g'ri yoki noto'g'riligini uzil - kesil aniqlashdan, ularni sinab ko'rib, (interpretatsiya bosqichini, aprobatsiya

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

singari nomlar bilan ham ataladi), aniq xulosaga kelish bosqichi.

Kuzatuv faoliyat mahsulini tahlil etish, suhbatlar o'tkazish, anamnestic ma'lumotlarni aniqlash eksperiment o'tkazish va uning natijalarini matematik yo'l bilan qayta ishlash, xulosalar chiqarish va ularni izohlab berish-bularning xammasi tadqiqot ishining tarkibiga singib ketadi va unda o'z ifodasini topadi.

Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib va qoidalarga binoan tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy, psixologik hamda sof psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Yosh davrlar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari haqida tushuncha bering?
2. Mamlakatimiz va xorij olimlarining nazariyalari bo'yicha yosh davrlariga qanday yondashuvlar keltirilib o'tilgan?
3. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering?
4. Psixik taraqqiyot va ta'limning o'zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
5. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
6. Yetakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
7. Yosh davrlarini tasniflab bering?
8. Yosh davrlari psixologiyasining tadqiqot metodlari bu ?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xolmurodov L.Z. Bolalar va o'smirlar sporti asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / L.Z. Xolmurodov. – T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 276 b.
2. Xolnazarova M.X., Muxliboyev M.Q. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014. – 208 b.
3. Avdulova T.P. Psixologiya podrostkovogo vozrasta [Электронный ресурс]: uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata / T.P. Avdulova. – Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2018. – 394 s.
4. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya [Электронный ресурс]: uchebnik dlya akademicheskogo bakalavriata / O.V. Kalinova i dr.; Pod red. B.A. Sosnovskogo. – Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2018. – 359 s.
5. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi: Nazariy-eksperimental tahlil: Monografiya. – Toshkent: NOSHIR, 2010. – 360 b.
6. Gulobod Q., Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. – 312 b.
7. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi: metodik qo'llanma / tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. – 112 b.

### 2-MAVZU. PSIXIK TARAQQIYOT VA TA'LIM.

#### Reja:

2.1. Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari.

2.2. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

#### 2.1. Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari.

Inson psixikasi doimo rivojlanishda. Bola insoniyat tarixi davomida jamg'argan tajribalarni o'zlashtirishi jarayonida rivojlanadi. Bu jarayon kattalar tomonidan doimiy nazorat, ya'ni ta'lim sharoitida amalga oshadi. Ta'lim bolaning psixik rivojlanishi jarayonida belgilovchi rol' o'ynaydi. Ta'lim tabiiy iste'dod, ijtimoiy muhit va u yoki bu yosh uchun samarali, tushunarli ta'lim usullariga asoslanadi. Shunday qilib, shu narsani ko'rish mumkinki, go'daklikda ko'rgazmali-harakatli fikrlash, keyin esa ko'rgazmali-obrazli, og'zaki-mantiqiy, mavhum, umumiy nazariy fikrlash turlari paydo bo'ladi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va harakat usullarining o'zgarishi, murakkablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar, ya'ni shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar (o'qish, anglash, atrofdagilar bilan munosabat);

2) faoliyatining psixologik tuzilishi xususiyatlari (motiv, maqsad, ob'ekt);

3) anglash mexanizimining rivojlanish darajasi. Shunday qilib, bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin:

1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi;

2) egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi;

3) shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi (yo'naltirilganlik, faoliyatning psixologik tuzilishi, anglash va fikrlash). Ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos. Bu yo'llarning barchasi o'zaro bog'liqlik va faqat birgalikdagina psixik rivojlanish deb ataluvchi shaxsdagi o'zgarishlar jarayonini tashkil etadi.

Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Masalan, shveysariyalik psixolog J.Piaja o'zi olib borgan tadqiqotlar asosida ta'kidlashicha, 7-8 yoshdan kichik bolalar raqam bilan bog'liq faoliyatga qodir emas. SHuningdek, bolaning psixik rivojlanishiga ta'lim mazmunining o'zgarishi va uning ta'siri haqida L.A.Venger, P.YA.Gal'perin, D.B.El'konin, V.V.Davidov va boshqalar yozgan. Usul va bilimlarni qo'llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi. Faoliyatning umumiy turi aniqlangach, bolalar tomonidan ayni usullar turli darajada qo'llanilishi mumkin. O'quvchilar faoliyatning nisbatan Yuqori shakllari va turlariga (shuningdek, aqliy) masalan, aniq va abstrakt bilimlarni bog'lay olish va o'zaro nisbatini aniqlay bilishga o'rgatilishi lozim. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o'zgaradi,

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi. Mazkur o'zgarishlar ichidan nisbatan umumiy va belgilovchi o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Bolaning shaxsiy yo'naltirilganlik xususiyatining umumiy rivojlanishi. Unga uch turni kiritish mumkin:

a) ta'limiy yo'nalganlik (yaxshi o'qish, yaxshi baho olish);

b) bilim olishga yo'nalganlik (masalalarni hal etish, yangi vazifalar olish);

v) atrofdagilar bilan munosabat.

Shunday qilib, shaxsiy yo'nalganlikni hisobga olish maktab o'quvchilari ta'limi (bilim va usullarni egallash) va tarbiyasini (shaxsiyat rivojlanishi) yanada samarali amalga oshirish uchun birinchi va zarur shartdir.

2. Faoliyat psixik tuzilishining rivojlanishi (motiv, maqsad, ob'ekt). Masalan, maktab o'quvchilari bog'chaga sovg'a uchun archa o'yinchoqlarini tayyorlashadi. Motiv - turlicha (bolakaylar ko'nglini olish, o'qituvchi talabini bajarish, jarayonning o'zidan qoniqish). Maqsad – archa uchun o'yinchoqlar tayyorlash. Ob'ekt – o'yinchoqlar tayyorlanadigan materiallar.

Har qanday faoliyat o'z ichiga qator unsurlarni (motiv, maqsad, ob'ekt) oladi. Hammasi birgalikda faoliyat tuzilishining o'ziga xos xususiyatini yaqqol ko'rsatib beradi.

3. Ong mexanizmining rivojlanishi. Bu fikriy faoliyatning ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o'zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlashining rivojlanishi darajasi qancha Yuqori bo'lsa, u o'zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo'ladi.

Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin:

1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi;

2) o'zlashtirilgan usullar qo'llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi;

3) shaxsning umumiy xususiyatlarining rivojlanishi.

3. Ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining pedagogik shartlari va qonuniyatlari  
Bilim, uni qo'llash mexanizmlari va shaxs umumiy xususiyatlari rivojlanishining pedagogik shartlari ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga bog'liq. Bola psixik rivojlanishining turli taraflari uchun alohida, aniq pedagogik shartlarni ham inobatga olish muhim. O'qish jarayonida o'quvchilar turli o'quv predmetlari bo'yicha bilim va harakat usullarini egallaydilar. O'qishning har xil turlari bo'yicha yangi bilim va mahoratlarni egallab borish bilan bir qatorda bu shartlar bilan muvofiq ravishda bola psixikasi ham rivojlanib boradi.

### 2.2. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.

Insonning psixik xususiyatlari uning xayoti davomida, ya'ni ontogenetik tarzda yuzaga keladi; bu xususiyatlarni tarkib topishi va rivojlanishida odamning ijtimoiy tajribasi tashabbusi uning xayoti va faoliyati sharoitlari, ta'lim va tarbiya etakchi, xal qiluvchi rol uynaydi, - deb urgatadi. Muxit (keng ma'noda olganda), ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya azaldan berilgan, genetik jixatdan qattiy bulgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo'lib kolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi. Shuni aloxida kayd qilib o'tishimiz lozimki, "jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning yosh avlodga ongli, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish protsessii" sifatida ta'lim va tarbiya xal qiluvchi ahamiyatga egadir.

**Birinchidan**, shuni qayd qilib o'tish kerakki, odam muxit ta'siri ostidagi passiv ob'ekt bo'lmay, balki aktiv, faol mavjudotdir. Shuning uchun tashqi xayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasining to'g'ridan to'g'ri belgilamaydi, balki odamning muxit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muxitdagi faoliyati orqali belgilaydi. Shu sababli muxitning ta'siri haqida emas balki odamning tevarak atrofdagi muxit bilan aktiv o'zaro ta'siri haqida gapirish to'g'ri bo'lar edi.

**Ikkinchidan**, psixikaning rivojlanishi oqibat natijada tashqi sharoitlarga tashqi tasurotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishning bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chikarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar xamda vaziyatlar xamisha odamning xayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Mana shu ma'noda tashqi ta'sir indivilning o'ziga xos psixikasi va shaxsiy tajribasini o'z ichiga olgan ichki sharoit orqali bilvosita ta'sir qiladi.

**Uchinchidan**, odam aktiv mavjudot sifatida o'zi xam ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni tevarak atrofidagi muxitdan ajirilgan xolda bormaydi. O'z-o'zini tarbiyalash muxit bilan moslashgan xolda va muxit bilan aktiv o'zaro munosabatda sodir bo'ladi. Shuning uchun o'zini-o'zi tarbiyalashda xam muxitning ta'siri ko'rinib turibdi.

Xulosa chiqarish mumkinki, bir xil tashqi sharoit, bir xil muxit, turli bolalarga, o'smirlarga, yigit va qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatish mumkin. Maktab o'quvchisining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun xam murakkabki, psixik taraqqiyotning o'zi murakkab va qarama-qarshi o'zgarishlardan iborat jarayondir. Psixik taraqqiyotning faktorlari, talim va tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko'p qirralidir. Biz yukorida aytib utilganidek, bu faktor va sharoitlar turli bolalarga turlicha ta'sir qilishi mumkin. O'z-o'zidan ravshanki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar zarurdir. Insonning psixik xususiyatlari normal tarkib topishi uchun muayyan darajadagi biologik to'zilish, inson miyyasi va inson nerv sitemasi bo'lishi shart. Insoning tabiiy xususiyatli psixik rivojlanishning muhim shartidir. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni xarakatga keltiruvchi kuchlar, faktorlar emas, balki faqat dastlabki shartalrdir. Miya biologik tarzda tashkil topgan organ sifatida ongning yuzaga kelishi uchun dastlabki shartlardir, ong esa inson ijtimoiy turmushning maxsulidir. Nerv sitemasi tevarak atrofdagi olamni aks ettirish uchun tug'ma organi imkoniyatlarga ega lekin tegishli qobiliyat faqat ijtimoiy xayot sharoitidagi faoliyatda tarkib topadi. qobiliyat kurtaklarining, ya'ni nerv sitemasi va miyada

## Yosh davrlari psixologiyasi

b'zi bir tug'ma anatomik - fiziologik xususiyatlarining mavjudligi qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlardir. Ammo bu shart sharoitlarning mavjudligi xali qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlamaydi. qobiliyatlar xayot iva faoliyat sharoitlari, odamga beriladigan ta'lim va tarbiya ta'siri ostida tarkib topadi va rivojlanadi. Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni xarakterga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, psixik taraqqiyotga ma'lum darajada ta'sir kursatadi. Birinchidan tabiiy xususiyatlarsixik xususiyatlar taraqqiyotning turli y ullarini va usullarini belgilab beradi .Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z -o'zicha shaxsning xech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Xech bir normal bola dadil yoki qo'rqqoq irodali yoki irodasiz, mexnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda tarbiya to'g'ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tipii asosida xarakterning barcha ijtimoiy kimmatli xususiyatlarini xosil qilish mumkin masalan sabot matonat va o'zini tuta bilish xislatini nev sistemasining tipli shiddatli (Pavlov bo'yicha) bo'lgan bolalarda xam nerv sistemasining tipli vazmin bo'lgan bolalarda xam tarbiyalash lozim va tarbiyalasa bo'ladi. Ikkinchidan, tabiiy xususiyatlar odamning biror soxada erishgan yutuqlari darajasiga xam ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaqlarida tug'ma individual farqlar bo'lmaydi. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardang ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jixatidan ustun turishlari va shuning bilan bir paytda bir faoliyat turini egallash imkoniyatini o'zini musiqa qobiliyati rivojlanishi uchun qulay tabiiy kurtakka (tabiiy sharoitga ega bo'lgan bola boshqa xamma sharoitlar bir xil bo'lishiga qaramay musiqa qobiliyati rivojlanishi uchun tabiiy kurtakka ega bo'lmagan bolaga nisbatan musiqa soxasida tez rivojlanadi va nisbatan katta yutuqlarga erishadi. Mana shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar .

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering?
2. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma'lumot bering?
3. Psixik taraqqiyot va ta'limning o'zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
4. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Авдулова Т.П. Психология подросткового возраста [Электронный ресурс]: учебник и практикум для академического бакалавриата / Т.П. Авдулова. – Москва: Издательство Юрайт, 2018 . – 394 с.
2. Возрастная и педагогическая психология [Электронный ресурс]: учебник для академического бакалавриата / О.В. Калинова и др.; Под ред. Б.А. Сосновского. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 359 с.
3. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi: Nazariy-eksperimental tahlil: Monografiya. – Toshkent: NOSHIR, 2010. – 360 b.

### 3-MAVZU. PSIXIK RIVOJLANISHNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI.

#### Reja:

3.1. Yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi.

3.2. Sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi.

#### 3.1. Yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi.

**Psixoanaliz** (psixo... va analiz) - psixoterapiya metodi va Zigmund Freyd tomonidan rivojlantirilgan psixologik ta'limot. Ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo'yadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan jinsiy mayl tashkil qiladi degan g'oyani ilgari surib, odam xulqidagi ijtimoiylik, onglilikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, jinsiy) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va hokazolar)ning asosiy manbai sifatida qaraladi. Psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, 3 xil psixik instansiyalar hukm surishi mumkin: g'ayri-shuuriy "U" (id) - mayl doirasi; turli himoya vositalari bilan "U"ning impulyelarini cheklovchi shuuriy "Men" (Ego); "O'ta-Men" (Super-Ego) - ijtimoiy taqiqdar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib-qoidalar. Freydning fikricha, "Men" reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Inson o'zining qadimgi ajdodlaridan irsiy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar dastavval jinsiy instinkt va o'zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko'p jihatdan cheklab qo'yadi, uning instinktlari va mayllari "senzura"dan o'tkaziladi. Buning natijasida o'zining aksariyat instinktlari va mayllarini to'xtatish, taqiqlashga majbur bo'ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga tegadigan ruhiy holat sifatida ongli hayotidan siqib chiqariladi, lekin yo'qolib ketmaydi, faqat ongsizlik sohasiga o'tkazib yuboriladi, xolos.

Psixoanaliz ta'limotining vazifalaridan biri - ongsizlik sohasidagi "kompleks"larni aniqlash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatni mutlaqlashtirish uchraydi, buning natijasida ularning o'zaro bir-birini to'ldirish imkoniyati rad qilinadi. Zigmund Freyd tomonidan yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifiga ko'ra rivojlanish organik jinsiy, psixologik, fiziologik no'qtayi nazardan izohlab berilgan.

#### 3.2. Sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi.

Sotsiogenetik kontseptsiya namoyandalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog'liqdir. Bu nazariyada shaxsda ruy beradigan o'zgarishlarni jamiyatning to'zilib; ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta'limotta ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.



## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Chunonchi, angaliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini top-toza paxtaga uxshatadi. Uning fikricha, bolaning “top-toza paxta” tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo’lib etishishi, ya’ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o’zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog’liqdir, deb ta’kidlaydi. Psixologiya fani zamonaviy ta’limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta’siriga bog’liqlini dalillar asosida izoxlab beradi. Ulardan;

- birinchisi - inson tug`ilib voyaga etadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta`siri;
- ikkinchisi - odamga o`zoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta`lim tarbiyaning ta`siri;
- uchinchisi - odamga tug`ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta`siridir.

Ma’lumki, har bir odam o’ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya’ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg`ayadi, shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a’zosi sifatida, ma’lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo’lgan muayyan jamoalarning faol a’zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning mohiyati o’z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlaiish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog’liqlikda bo’lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma’noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatleri, qiziqishlari, e’tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Muhit, ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim va tarbiya, azaldan berilgan, genotik jihatdan qatiy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo’lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi. Bu borada,

Birinchidan, odam muhit ta’siri ostidagi passiv ob’ekt bo’lmay, balki faol mavjudotdir, Shu bois hayot sharoiti, tashqi ta’sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo’lgan o’zaro ta’siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta’siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o’zaro ta’siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta’sirotlarga bog’liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo’lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qnyofasi orqali ta’sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o’zi ham ongli ravishda o’z

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin, lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir. O'z-o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi o'chun muayyan darajadagi biologik to'zilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanigani harakatta keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatta keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, insoniyat psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchiidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi, Hech bir me'yordagi bola dadil yoki qurqoq, irodali yoki irodasiz, mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi, Agarda tarbiya to'g'ri tashkil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tidi asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini to'ta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipi vazmin bo'lgan bolalarda ham tarbiyalash mumkin va tarbiyala bo'ladi. Biroq birinchi hol bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari ham churlicha bo'ladi.

Ikkinchiidan, tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat ko'qishklarida tugma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Bazida esa aksincha, biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ortda qolinglari mumkin. Mana shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini baravar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy ko'qishklar o'quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham (shu sababli, masalan, ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilardan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq- zo'r berish talab qilinadi, ayrim o'quvchiga o'qituvchi ko'proq kuch sarflaydi, e'tibor beradi va ko'proq vaqt ajratadi), bu ko'qishklarning o'zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir:

1) miyaning biologik, organiketilishi, uning anatomik-fiziologik to'zilishi jihatidan etilishi;

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatadagi, o'ziga xos aqliy etilish sifatidagi psixik rivojlaiishi, o'z-o'zidan malumki, aqliy rivojlanish miya to'zilishining biologik echilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organikjihatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya bo'zilishining organikjihatdan etilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya to'zilishining organikjihatdan etilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishga nisbatan etakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

E. Erikson o'z nazariyasida shaxsiy rivojlanishning ikkita oddiy yo'nalishini taqdim etdi: normal va g'ayritabiiy. Hayotda ular sof shaklda deyarli hech qachon uchramaydi, lekin ular turli oraliq variantlar va kombinatsiyalarni aks ettiradi. Erikson insonning shaxsiy rivojlanishining sakkiz bosqichini aniqladi.

Birinchi bosqichda (bir yilgacha) bolaning rivojlanishi kattalar, birinchi navbatda ona bilan muloqot orqali aniqlanadi. U ovqatlantiradi, g'amxo'rlik qiladi, mehr -muhabbat va g'amxo'rlikni beradi, buning natijasida bolada dunyodagi asosiy ishonch shakllanadi. Odamlarga bo'lgan istak paydo bo'lishi yoki ulardan begonalashishi uchun zarur shart -sharoitlar mavjud.

Ikkinchi bosqich rivojlanish (uch yilgacha) mustaqillik va mustaqillikning shakllanishi, o'ziga bo'lgan ishonch bilan bog'liq. Ularning shakllanishi ko'p jihatdan kattalar bilan bola bilan muloqot va davolanish xususiyatlariga bog'liq. Jamiyat va ota -onalar bolani ozoda va ozoda bo'lishga o'rgatishadi.

Uchinchi bosqichda (3-5 yosh) bola o'zining shaxs ekanligiga ishonch hosil qiladi, chunki u yugurib gapira oladi, dunyoni o'zlashtirish maydoni kengayib bormoqda. Bolada tashabbuskorlik, tashabbuskorlik hissi paydo bo'ladi, bu o'yinda yotadi.

To'rtinchi bosqichda (5-11 yosh) bola allaqachon oilada rivojlanish imkoniyatlarini tugatmoqda va endi maktab bolani bilim bilan tanishtiradi. Bolaga mehnatsevarlik, yutuqlarga intilish, kognitiv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish xarakterlidir.

Beshinchi bosqich (11-20 yosh) balog'at, o'smirlik va o'smirlikni o'z ichiga oladi. Agar erta bosqichda tez fiziologik o'sish, balog'at yoshi, tashqi ko'rinishidan tashvish bo'lsa; keyin keyingi bosqichda yigit o'z hayotini o'zi belgilaydi, o'z kasbini qidiradi. Uning oldida savollar tug'iladi: kim bo'lish kerak? va nima bo'lish kerak? Dunyoqarashni shakllantirish jarayoni, o'zini faol izlash bor.

Oltinchi bosqichda (20-40-45 yosh) odam uchun hayot sherigini izlash, odamlar bilan yaqin hamkorlik qilish, butun ijtimoiy guruh bilan aloqalarni mustahkamlash dolzarb bo'lib qoladi. Inson yangi hayotga ega bo'ladi va ijtimoiy rollar ko'p narsalarga yangicha qarashga imkon beradi. Bolalarning tug'ilishi va o'qishi. Sevgi va ish.

## Yosh davrlari psixologiyasi

Etinchi bosqich (40-45 - 60 yosh) - shaxsiyat rivojlanishining kattalar bosqichi. Shaxsiyatning rivojlanishi, o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi qabul qilish davom etmoqda. Mehnat faoliyati kamolot namoyon bo'lishining sharti vazifasini bajaradi. Yetuk to'laqonli xilma-xil hayot. Yangi avlodni o'qitish va tarbiyalash.

Sakkizinchi bosqichda (60 yoshdan oshgan) hayotning to'liqligi to'g'risida tushuncha paydo bo'ladi. Doimiy aks ettirish. O'tmishdagi hayotni xuddi shunday qabul qilish. O'lim dahshatli emasligini tushunish. Natijada, shaxs ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida uning namoyon bo'lishida hayotiy jihatdan barqaror bo'lgan ta'lildir. Shaxsning barqarorligi harakatlarning ketma -ketligi va odamning xulq -atvorini oldindan aytib berish bilan tavsiflanadi, uning harakatlariga tabiiy xarakter beradi. Shaxsning asosiy xususiyatlari va ularning barqaror kombinatsiyasi aniqlaydi ijtimoiy ahamiyatga ega va umuman insoniy xatti -harakatlar.


**Erikson.** Shaxsiyat rivojlanishining epigenetik kontseptsiyasi. Periodizatsiya butun hayotni qamrab oladi. Har bir bosqich insonning bu bosqichdagi hayotining asosiy va etakchi muammosini hal qilishni ifodalaydi, bu ikkiga bo'linish shaklida tuzilgan. Yechimlardan biri odatiy - universal insoniy me'yorga muvofiq; ikkinchisi samarasiz, inson mavjudligining ob'ektiv me'yoriga mos kelmaydi. Bu variant psixopatologik rivojlanish uchun old shartlarni yaratadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi haqida tushuncha bering?
2. Sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi haqida tushuncha bering?
3. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi haqida tushuncha bering?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Goziev E. Intellect psixologiyasi. T., O'qituvchi, 1996 yil
2. Goziev E. va b. Psixologiya muammolari. T., O'qituvchi, 1996 yil
3. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi / Nazariy eksperimental tahlil. - T.: "Noshir", 2010. - 360 b.
4. G'oziyev E. G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., O'qituvchi, 1994.
5. Umarova N. Sh., Arziqulov D. N. Umumiy psixologiya / O'quv qo'llanma - T.: "Fan va texnologiya", 2018. - 220 b. - ISBN 978-9943-11-964-2



# AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### **4-MAVZU. YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT METODLARI.**

#### **4.1. Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari (kuzatish, suhbat, test.....).**

Psixikani o‘rganish qator boshlang‘ich boshqaruv nizomlariga asoslangan tamoyillarga tayanadi, bu tamoyillar tadqiq etilayotgan ob‘ektni mazmunli bayon etish, tajriba ma‘lumotlariga ega bo‘lish muolajalarini rejalashtirish, ularni umumlashtirib, izohlash, shuningdek, ilmiy farazlarni ilgari surib, ularni tekshirish imkonini beradi.

Psixologiyaning asosiy metodli tamoyillari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

1. ***Determinizm tamoyili.*** Bu tamoyilga asosan, barcha mavjudliklar ma‘lum sabab, qonuniyatga ko‘ra paydo bo‘ladi, o‘zgaradi va nobud bo‘ladi. Psixologik tadqiqotda psixika hayot tarzidan kelib chiqib, mavjudlikning turli tashqi sharoitlari ta‘sirida o‘zgarishini bildiradi.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Hayvonlar psixikasi haqida soʻz yuritilganda, uning rivojlanishi biologik qonun sifatidagi tabiiy tanlanish bilan belgilanishini taʼkidlash lozim. Odam psixikasini oladigan boʻlsak, inson ongi kelib chiqishining shakllari va rivojlanishi oxir-oqibat hayot uchun zarur moddiy vositalarni ishlab chiqish usulining rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Determinizm tamoyilidan kelib chiquvchi xulosa sifatida inson ongining ijtimoiy-tarixiy xususiyatini tushunish xizmat qiladi.

2. *Ong va faoliyat birligi tamoyili.* Ong va faoliyat uzviy birlikni tashkil etadi, lekin ular bir-biriga aynan oʻxshash emas. ong faoliyat jarayonida uning ichki rejasini, dasturini hosil qilgan holda shakllanadi. aynan, ongda voqelikning harakatchan koʻrinishlari yuzaga keladi, ular yordamida inson atrof muhitda oʻz yoʻnalishini aniqlay oladi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili ruhshunoslarga hulq-atvor, faoliyatni oʻrgangan holda, samarali maqsadga muvofiq harakatlarning ichki psixologik mexanizmlarini aniqlash, yaʼni, psixikaning obʼektiv qonuniyatlarini ochib berish imkonini beradi.

3. *Psixika va ongning faoliyatda rivojlanish tamoyili.* Ushbu tamoyil psixika haqida uning faoliyat jarayoni va natijasi sifatida uzluksiz rivojlanishda koʻrib chiqilgandagina toʻgʻri tushuncha hosil boʻlishini bildiradi.

Har bir psixik hodisaning tadqiq etilishi shu hodisaning aynan hozirgi vaqtga tegishli boʻlgan xususiyatlarining taʼrifini, yuzaga kelish va shakllanish tarixini, shuningdek, rivojlanish istiqbollari oʻz ichiga olgan boʻlishi kerak.

Olimlar inson psixologiyasi va hulq-atvorini oʻrganishda ularni bir tomondan, organizmning biologik tuzilishi va faoliyati nuqtai nazaridan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy rivojlanish qonunlari yordamida tushuntirib berishga harakat qiladilar.

### **Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari:**

**Kuzatish metodi.** Ontogenez psixologiyasida bu metodning obʼektiv (tashqi) va subʼektiv kuzatish turlari bor. Inson psixikasidagi oʻzgarishlarni har xil vaziyatlarda kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- 2) kuzatiladigan obʼekt tanlanadi;
- 3) sinaluvchining yoslu, jinsi, kasbi aniqlanadi;
- 4) tadqiqot oʻtkazish vaqti rejalashtiriladi;
- 5) kuzatish qancha vaqt davom etishi qatʼiylashtiriladi;
- 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (oʻyin, oʻqish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;
- 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan otkazilishi) tayinlanadi;
- 8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon, kinokamera, mobil telefon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyglulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolarni oʻrganiladi. Ammo oʻta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, montiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan,

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

go'dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o'yinchoqlarga munosabati, histuyg'usi, talpinishi. mayli, xohishi aniqlanadi. O'quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmasining o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga imkoniyati tiig'iladi. O'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ulaning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, g'alabaga intilishi, o'zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig'ish mumkin. Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning olz diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o'zini rutisiii, imo-ishoralari, tashqi qo'zg'atuvchidan ta'sirlanish darajasi haqida kenc ma'lumotlar yig'iladi. Keksalarning muloqot jarayonini kuzatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his-tuyg'usi, ekstravertivligi yoki introvertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyatlarini aniqlash demakdir

**Suhbat metodi.** Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va subekti tanlanadi, mavzusi, oltkaziladigan vaqti aniqlaxtadi, yakka shaxslar, guruh va jainoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgai narsa bilan uzviy bogliq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir.

**Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.** Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod ontogenez psixologiyasida keng qollanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy kashtachilik, hunannandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, ilmiy ma'ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar, loyiha, magistrlik, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va hokazolar kiradi.

**Test metodi.** Test — inglizcha so'z bo'lib, smash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga. tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir. 1905 yildan, ya'ni fransuz psixologi A.Bine va uniig shogirdi T.Simon insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'liana boshlandi. Chet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar.



## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Biroq test tekshirilayotgan hodisalarning psixologik mezoni hisoblanmaydi. Malumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilan amalga oshiriladi. Chet el testologlari tadqiqot ob'ektlarini olzgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog'liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar. Psixologlar K.M.Gurevich, V.A.Kjuteskiy va boshqalar qo'llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsip asosida tuzilgan. Ular testlarning tafakkur ko'rsatkichi (indikator) bo'lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga erishdilar. Shuningdek, tafakkur jarayonining sifat xususiyatlarini bilmay turib, qobiliyatning mohiyatini yoritib boimaydi, degan qoidaga amal qilgan holda testlardan foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan G.Rorshax, S.Rozensveyg, R.Kettel, D.Veksler, G.Meyli, G.Ayzenk, A.Anastazi, Dj.Raven, G.Myurrey, R.Amtxaer, M.Rokich, Dj.Rotter, M.Lyusher, Dj.Gilford va boshqalar ijodining namunalari kiritish mumkin.

Bizningcha, testlarni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

1. natijaga erishuv testlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar aniqlanadi; uharakat, yozma va og'zaki testlarga bo'linadi);
2. intellekt testlari;
3. kreativlik (ijodiyot) testlari;
4. kriterial-orientir testlari (mezoniy mo'ljalga yo'naltirilgan);
5. shaxs testlari;
6. iste'dod (qobiliyat) testlari;
7. proektiv testlar (syujetli testlar, rasm testlari, chizilgan va chizish talab qilinadigan testlar);
8. kognitiv testlar/

**Tajriba (eksperiment) metodi.** Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o'spirin, balog'atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o'sishi, favquloddagi holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, ob'ektiv tarzda har xil holat va vaziyatlarni yaratishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, xarakter, xususiyati, his-tuyg'usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko'nikma va malakalariga e'tibor berishi lozim. Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari. o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

sinaluvchilar (bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar)ning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. **Laboratoriya (klinika) metodi** ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblardan, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, kolrsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblardan, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama vajihozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llanadi. Ko'pincha detektorlar, elektron va radio o'ichagichlar, sekundomer, refleksometr, xronorefleksometr, lyuksmetr, anomaloskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi. Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari emotsional hamda irodaviy va aqliy zo'riqlash singam murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vazivatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning kolrsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqlash, emotsional-irodaviy, asabiy zo'riqlash, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi. Tajriba aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi) va tekshirish (nazorat) qismlariga bo'linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat o'yin, mehnat, o'qish kabi faoliyatlarda tadqiq kilinadi. Tadqiqot ob'ektining aynan shu paytdagi holati, imkoniyati aniqlanadi, lekin tekshiruvchi sinaluvchiga sub'ektiv ta'sir o'tkazmaydi. Shu pallada sinaluvchiga hatto, yo'llovchi savollar bilan ham yordam bermaslik tajribaning prinsipi hisoblanadi. Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish, shuningdek, ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani, yo'l-yo'riq va usulni o'rgatish rejalashtiriladi. Tajriba yakka, guruh va jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin. Buning uchun tajriba materialining hajmi, ko'lami, qancha vaqtga mo'ljallanganligi, nimalar o'rgatilishi, sinaluvchilarni psixologik jihatdan tayyorlash oldindan belgilab qo'yilishi shart. Tekshirish (nazorat) tajribasida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo'l-yo'riq, ko'nikma, malaka va shaxs fazilatlarining darajasini, barqarorligini aniqlash, ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o'lchanadi. Mazkur tajribada ham tekshiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berishi mumkin emas, aks holda tadqiqot o'tkazish prinsipi buziladi. Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi tajribalarda yig'ilgan ma'lumotlar, miqdor-statistik metodlardan foydalangan holda ishlab chiqiladi, shuningdek, miqdor tahlili o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi. Statistik metodlar yordamida insonning bilish jarayonlari bilan uning individual-tipologik

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi va ta'siri (korrelyatsiyasi) bilish jarayonlarining his-tuyg'u bilan boshqarilishi, aql-zakovat omillarini tahlil qilish amalga oshiriladi. So'ngra miqdoring hamda qo'llanilgan metodikaning ishonchlilik, aniqlilik darajasi aniqlanadi. Ungacha ham matematik statistikaning sodda metodlaridan foydalanib ayrim hisoblashlar, masalan, o'rtacha arifmetik 20 qiymat, miqdorlarni tartibga solish va medianani hisoblash, kvadrat chetga og'ishni topish va boshqalar amalga oshiriladi. Hozir injener (muhandis) psixologlar matematiklar bilan hamkorlikda inson psixikasining modelini yaratish ustida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar, shuningdek, mediklar, fiziologlar, kibernetiklar psixikani programmalashtirishni nihoyasiga yetkazmoqdalar. Ishlab chiqarishdagi "sun'iy intellektlar", robotlar, EHMlar ana shu izlanishlarning dastlabki samarasi hisoblanadi.

**Biografiya (tarjimai hoi) metodi.** Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tajimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgaralar ijodiga bergan baholari, tanbehleri, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgaralar tomonidan to'plangan tajimai hoi haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tasniflar, baholar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, mobil telefon tasvirlari va hokazolar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavur etishga xizmat qiladi. Tajimai hoi ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarni ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar; she'riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o'ziga xosligini, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Inson ongining xossasi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atqili odamlar bildirgan mulohazalarda o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu tavsiflari orqali avloddan avlodga o'tadi. Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

**Anketa metodi.** Ontogenez psixologiyasida keng qo'llanadigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch shaklda tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchisida esa har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarni aniqlash maqsadida foydalaniladi.

**Sotsiometrik metod.** Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Sotsiometrik metodi haqida tushuncha bering?
2. Anketa metodi haqida tushuncha bering?
3. Biografliya (tarjimai hoi) metodi haqida tushuncha bering?
4. Tajriba (eksperiment) metodi haqida tushuncha bering?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi / Nazariy eksperimental tahlil. - T.: "Noshir", 2010. - 360 b.
2. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., O'qituvchi, 1994.
3. Umarova N.Sh., Arziqulov D.N. Umumiy psixologiya / O'quv qo'llanma - T.: "Fan va texnologiya", 2018. - 220 b. - ISBN 978-9943-11-964-2

## 5-MAVZU. PSIXIK RIVOJLANISHDA YOSH DAVRI INQIROZI MUAMMOSI.

### Reja:

- 5.1. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
- 5.2. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari.

### 5.1. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

Inson ontogenezida uning I yoshdan 3 yoshgacha o'sish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislati, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi, ya'ni uning imkoniyati bilan intilishi o'rtasidagi ziddiyat rivojlanish negizi hisoblanadi. Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg'ul bo'lish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobelligi, ularga bog'liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi. Binobarin, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. R.Ya.Abramovich-Lextmanning tadqiqotlarida ifodalanishicha, bir yoshli va bir yoshu ikki oylik bolada turli narsalar bilan harakat qilishning oddiy turi jadal rivojlanadi. Boshqacha aytganda, unda jismlar bilan muayyan harakatni amalga oshirishning nisbatan barqaror usullari shakllana boradi. Shunday harakatlar tobora ortadi va murakkablashadi, ularning mohiyati borgan sari chuqurlashadi, ko'Mami esa kengayadi. D.B.Elkoninning fikricha, bolalarda keng ko'Mamli va ko'p miqdordagi predmetlarni tanish, idrok qilish, ularning xususiyatlarini o'zlashtirish ehtiyojining ortishi katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish mayli, tuyg'usi va istagini kuchaytiradi. Shunday bo'lsa-da, bu muammo bola shaxsiy o'yin faoliyatini tashkil qilishda hali kattalarning madadiga va yordamiga muhtojligini ko'rsatadi. Bir yoshli va undan sal oshgan

bolaning har xil harakatli o'yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ko'zlagan ishni bajarishidagi noxush kechinmalar uning mhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg'u va hisni vujudga keltiradi. Shuningdek, o'z faoliyatida uchraydigan ko'ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatini bildirish - aks ettirishning yangi shakli ta'sirlanish (reaksiyaga kirishish)ni tarkib toptiradi. Achchiqlanish, jahl qo'zg'alishi, qahru g'azab tuyg'ularining xususiyatini tadqiq qilgan T.E.Konnikova ma'lumotlariga binoan, bir yoshli bolada ko'pincha bezovtalanish, xatti-harakatdagi "portlash", qahri qattqlik yuzaga keladi. Olimaning fikricha, uning psixikasida paydo bo'layotgan xulq hosilasi tirishqoqlikning o'ziga xos ko'rinishidan iborat bo'lib, u o'zi yoqtirgan narsani tezroq qo'lga olish xohishi bilan uzviy bog'liqdir. Odatda, affektiv holatga berilishni yoki affektiv ta'sirlanishni bola kattalar bilan muloqotda psixik jihatdan qoniqmasligi hosil qiladi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, "portlash", "lov etish" xususiyatiga ega bo'lgan aftekt quyidagi sabablar bilan vujudga keladi: 1) kattalar bolaning xohish-istaklarini tushunmasligi, imo-ishorasi va yuz-chehra harakatlariga, pantomimikasiga (yuz bilan tana harakatlari qo'shilishi) e'tiborsizligi; 2) bolaning ixtiyorsiz xattiharakatiga batamom qarshilik ko'rsatishi, shuningdek, uning talabini bajarmasligi, qoniqtirmasligi; 3) boladagi o'zgarishlarga oid bilimlardan bexabarligi, bu o'zgarishlami oldindan seza olmasligi va boshqalar. Jazavaga tushishning xususiyati va darajasi bolaning yashash sharoiti hamda unga kattalarning munosabatida o'z ifodasini topadi va mahalliy mezonlar yordami bilan aniqlanadi. N.A.Menchinskaya o'z kundaliklarida bir yarim yoshli o'g'lining o'jarligini shunday ta'riflaydi: "Mumkin emas!" degan taqiqlashga javoban Sasha o'jarlik qilar, sho'xligini yana zo'r berib davom ettirishga urinar edi; uning o'jarona xohishini boshqa ob'ektga tortish bilangina bartaraf qilsa bo'lar edi: ko'pincha taqiqlashga qarshi yig'lab injiqlik qilar, hatto, o'zini polga otar qo'l va oyoqlarini tapillatar, ammo bunday "jazava" uning xulqida juda kam sodir bo'lib, uni bunday sho'xliklaridan tez va oson chalg'itish mumkin edi." Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Bionskiy va ularning shogirdlari olib borgan ishlardan ko'rinadiki, bolada paydo bo'lgan dastlabki so'z-ibora go'daklik davridan ilk bolalik davriga o'tishning eng muhim jihati va sharti hisoblanadi. Harakat bilan so'zning bog'lanishi bolaning mustaqilligi va mustaqil faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, unda intilishni jadallashtiradi. Nemis psixologlari V.Shtem, K.Byuler va boshqalarning tadqiqotlarida bayon qilinishicha, bola qo'llaydigan dastlabki so'zlar ikkita muhim xususiyatga egadir: birinchi xususiyati ular kattalar nutqidagi so'zlardan fonetk jihatdan keskin farqlanishidir; ikkinchi xususiyati esa o'zining qamroyi bilan ko'pma'noli ekanligidir.

### 5.2. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari.

So'z bilan predmet o'rtasida har xil bog'lanish bo'ladi, lekin dastlabki tushunish vujudga kelgan vaziyatga bog'liqdir. Agar bola "koptok" so'zi boshqa ko'rinishdagi koptoklarga ham daxldorligini tushunsa, "Koptok qani?" degan savolga koptokning u yoki bu xilini ham ko'rsata oladi. Yangi predmet bola o'z tajribasida uchratgan jismga o'xshasa, tanishdek tuyulsa, yangi harakat bilan uni bildiradigan so'zni o'zaro bog'lash birmuncha yengil ko'chadi. Shunga o'xshash

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

vaziyat bolaning turmush tajribasida qanchalik ko'p uchrasa. idrok qilingan predmetlar ko'lami ham shunchalik tez kengayadi va bolaning lug'at boyligiga qo'shiladi. Bolaning faoliyatida unga beriladigan savollarni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi va uning oddiy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqotchi Ye.K.Kaverinaning tajribasida tasdiqlaganidek, bolaning predmet nomini tushunishi quyidagi tartibda aks etishi mumkin: a) bola eng avval atrofidagi predmetlarning nomlarini; b) katta yoshli odamlar va o'yinchoqlarning nomlari va rasmlarini; v) odamlarning gavdasining tuzilishini, uning bo'yi va hokazolarni tushunadi. Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini yengil o'zlashtirib oladi. Ikki yoshgacha davrida kattalar bilan muloqotga kirishishda uy jihozlari va boshqalarni o'rganadi. Ye.K.Kaverinaning fikricha, bolaga beriladigan topshiriqlar, harakat nomlari va ularni bajarish bo'yicha yoshlarning tushunish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: a) ta'sirlanishning yo'qligi yoki mutlaq noto'g'ri ta'sirlanish; b) harakatlarni to'g'ri ijro etish; v) harakatning murakkablashuvi va boshqa ko'rinishlarning xususiyatlari. Bolaning kattalar yo'naltiruvchi nutqini tushunishi xatti-harakatlarni amalga oshirishda yetaklovchi vazifani o'taydi. Kattalar bilan bolaning hamkorlikdagi faoliyatida yo'l-yo'riq mohiyatini tushunish o'ziga xos yangi munosabatlar o'rnatishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun ikki yoshli bolalarda kattalar nutqini tushunishning o'sishi predmetlar bilan harakatlarni amalga oshirish usulini egallashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bola uch yoshga qadam qo'yganda, unda nutqni tushunishning ko'lamini kengayadi; sifati esa yuqori darajaga ko'tariladi. 2-3 yoshli bola kattalarning amaliy faoliyatini bajarishga doir nutqini tushunishdan tashqari, ertak, hikoya, she'r kabilarni tinglashni ham yoqtirishi sababli ularda bayon qilingan fikrlarni ham tushunishga intiladi, natijada ilk tasavvurlar vujudga keladi.

Bola ikki yoshga to'lganda nutqining rivojida yangi davr boshlanadi. U ona tilining grammatik qoidalariga muvofiq gap tuzishga harakat qiladi. Uning nutqida qariyb barcha so'z turkumlari, murakkab bog'lovchisiz gaplar uchray boshlaydi. Fikr bildirish, ma'lumot uzatish ixtiyorsizlik asosiga quriladi. Bola 3 yoshga o'tganidan keyin faqat yaqin kishilari bilan emas, balki begonalar, tengqurlari bilan ham muloqot ko'lami kengayishi natijasida unda to'rtinchi yoshdagi nutq faoliyati vujudga keladi. Bolada kattalarning nutqiga, xatti-harakatiga qiziqish kuchayadi, o'ziga daxlsiz fikr va mulohazalarni tinglash mayli paydo bo'ladi, shuningdek, uning o'zi atrof-muhitda, kattalar davrasida olgan ma'lumotlar va axborotlar bo'yicha boshqalar bilan muloqotga kirishish istagi tug'iladi. Uch yoshli bolaning nutqni muloqot quroli vazifasini bajarib, amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Unda dialogik nutq paydo bo'ladi, chunki uning o'zini qiziqtirgan narsalar haqida savollar berishi yoki kattalarning savoliga javob qaytarishi dialogik nutqni taqozo etadi. Dialogik nutq zahirida ona tilining grammatik tuzilishini faol egallash uchun keng imkoniyatlar yotadi. Umuman, dialogik nutq bolaning kattalar bilan hamkorlikdagi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. A.N.Gvozdev ilk bolalik yosh davrida ona tilining grammatik qurilishini o'rganib, uni ikki bosqichga ajratadi.

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

Birinchi bosqich - 1 yoshu 3 oylikdan I yoshu 10 oylikkacha. Bu bosqich ham muayyan davrlami o'z ichiga: a) bir so'zdan tuzilgan gaplar bosqichi (1,3 - 1,8); b) ikki va undan ortiq so'zdan tuzilgan gaplar.

Ikkinchi bosqich - 1 yoshu 10 oy likdan 3 yoshgacha. Bu bosqich ham bir necha davrlarga ajratiladi: a) sodda va murakkab gaplaming shakllanishi (1,10 — 2); b) sintaktistik aloqalarni ifodalovchi gaplardan foydalanish (2,1 -2 ,3 ); v) yordamchi so'zlami o'zlashtirish bosqichi kabilar. Psixologik adabiyotlarda ilk bolalik davrida tilning grammatik shakllarini jadal sur'at bilan o'zlashtirish omillari bo'yicha qator muammolar ifodalangan. Masalan, K.Byuller bolani tilning flektiv (turlanish, tuslanish) tabiati bilan tanishish muammolariga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha, bola mazkur holatni intuitiv ravishda kashf qiladi, bu narsa grammatik aloqalarda, morfologik o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Bolada tilning grammatik qurilishini o'rganishga bag'lashlangan anchagina tadqiqotlar mavjud. Ularning mualliflari F.A.Soxin, L.S.Slavina, D.B.Elkonin, K.I.Chukovskiy, M.I. Popova, G.L.Rozengart-Pupko, A.R.Luriya, F.Ya.Yuduvich, P.Ya.Galperin va boshqalardir. D.B.Elkonin fikricha, ona tili (rus tili) grammatikasini o'zlashtirish quyidagicha amalga oshadi: a) yaqqol idrok qilinayotgan vaziyat tilning leksik vositasi bilan ifodalanib, ob'ektiv munosabatni aks ettiradi; b) predmetli vaziyatning grammatik shakli ajratiladi; v) grammatik munosabatlarning shaklini bildiruvchilarni umumlashtirish va mavhumlashtirish yuzaga keladi. Tadqiqotchi N.X.Shvachkin mulohazasiga ko'ra, bolada avval unli harflarni, keyin undosh harflarni farqlash ko'nikmasi vujudga keladi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalar asosida umumiy bir xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ikki yoshga to'lgan bola tilning barcha tovushlarini fonetik jihatdan idrok qilish asosida nutqni tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu hodisa shaxslararo munosabatni vujudga keltiradi. Ilk bolalik davrida harakatlarning shakllanishi orientirovka faoliyati xususiyati o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir. Bola u yoki bu harakatni amalga oshirish uchun avval predmet bilan tanishadi: unga ko'z yugurtiradi, qo'lga oladi va hokazo. Bolani predmetlarning shakli, rangi, vazni bilan tanishtirishda kattalar amalga oshirish mo'ljallangan harakatlarning mohiyatini tushuntiradilar va harakatni qay yo'sinda bajarishni o'rgatadilar: Bolani "Olib kel", "Joyiga qo'y" "Rasm chiz", "Ushlab tur" kabi so'z birikmalaridan iborat topshiriqning mohiyati bilan tanishtirib, keyin unga harakatni bajarish yo'llari "Qalamni mana bunday ushla", "Avval qo'lingga o'l", "Oldin o'ng qo'ling bilan tut", "Qoshiqni bunday ushlab o'zingga olib bor" deb ko'rsatiladi. Shuning uchun ham bolada predmetli harakatni o'zlashtirish murakkab jarayon hisoblanadi. Ilk bolalik amaliy harakat tafakkuri vujudga keladigan davr hisoblanib, qolgan operatsiyalari turli narsalar va qurilmalar bilan almashinadi. Bola ijtimoiy qurollardan foydalanish usullarini o'zlashtirishi natijasida unda predmetli harakat ko'nikmasi shakllanadi. Jismlar bilan turli harakatlarni o'zlashtirishda ulardagi muhim va o'zgarmas alomatlarini ajratish ko'nikmasi hosil bo'ladi, natijada umumlashtirish va umumiy tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni ro'y beradi. Yangi sharoitda predmetli harakatdan foydalanish bolaning aqliy o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi. O'z xatti-harakatini

## **Yosh davrlari psixologiyasi**

---

kattalaming harakati bilan solishtirish va uning o'xshash jihatlarini topish bolaning aqliy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Aqliy o'sishni tolg'ri yo'naltirish uchun bola bilan maxsus reja asosida mashg'ulotlar oltkazish maqsadga muvofiq. Bu davrda bolada "Men o'zim" konsepsiyasining vujudga kelishi shaxsiy fazilatlar shakllanishiga olib keladi va xuddi shu paytlarda u shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Bolada shaxsiy harakatlar paydo bo'lishi o'sishning yangi davri boshlangandan darak beradi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari haqida tushuncha bering?
2. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari haqida tushuncha bering?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi / Nazariy eksperimental tahlil. - T.: "Noshir", 2010. - 360 b.
2. Umarova N.Sh., Arziqulov D.N. Umumiy psixologiya / O'quv qo'llanma - T.: "Fan va texnologiya", 2018.-220 b. – ISBN 978-9943-11-964-2





## KEYSLAR BANKI

### **I. Mavzu: O‘quvchi-sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash**

**Keys-stadining asosiy maqsadi:** Hozirgi kunda sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash haqida tushuncha berish. Yoshlar ongida mustahkam dunyoqarash, qalbida sog‘lom e‘tiqodni shakllantirish, muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarini qo‘llash; muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topishga o‘rgatish.

**O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:** keys mazmuni bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko‘rish; sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlashni to‘g‘ri tahlil qilish; loqaydlik va beparvolik yo‘lidagi nuqsonlarni ko‘rsatib berish; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritish; muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarini qo‘llash; muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topish.

**Ushbu keys-stadini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:**

*O‘quvchi bilishi kerak:* sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlashni to‘g‘ri tahlil qilishni sportda kibr, loqaydlik, beparvolik, xudbinlik kabi muammolar.

*O‘quvchi amalga oshirishi kerak:* mavzuni mustaqil o‘rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi; ma‘lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o‘quv ma‘lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma‘lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

*O‘quvchi ega bo‘lmog‘i kerak:* kommunikativ ko‘nikmalarga; taqdimot ko‘nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga; muammoli holatlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga.

#### **Axborot olish manbalari ro‘yxati :**

Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korrektsiyasi. T., 2000.

Po‘latov J.A. Kasb-hunar kollejarining xatar guruhiga mansub o‘quvchilarini kasbga moslashtirish texnologiyasi. T., 2013.

Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik. T., 2011.

Gapparov Z.G. Sportchini psixologik tayyorlash (erkin kurash misolida). T., 2010.

Tulyaganova G.Q., Atabekova K.G‘. Sportda psixokorreksiya // Trenerlar va sport psixologlari uchun uslubiy qo‘llanma. – T., 2019.

#### **Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keys-stadining tavsifnomasi:**

Keys hayotiy, syujetsiz keyslar kategoriyasiga kiradi va statistik materiallar asosida tuziladi. Bu keys-topshiriqdir.

Keys didaktik maqsadlariga ko‘ra vaziyat sub’ektini rivojlantirishning yangi strategiyalari va yo‘llarini ishlab chiqishga rag‘batlantiradigan keyslar toifasiga kiradi.

### **II.Keys-stadi: “O‘quvchi-sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash”**

**Kirish.** “O‘quvchi-sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash” mavzusi “Yosh davrlari psixologiyasi” modulidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotda keysga asoslangan o‘qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash har bir jismoniy tarbiya fani o‘qituvchining vazifasidir. Sportchilarda musobaqalarga beparvolik, loqaydlik va o‘z manfaatini jamoat manfaatidan ustun qo‘yish salbiy psixologik xarakterdir. O‘z jamoasini, yurtini, kelajagini o‘ylagan sportchi hech qachon musobaqa oldi holatlariga beparvo bo‘lmaydi. Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki sportchilarda mashg‘ulotlarda va musobaqalarga beparvolik va loqaydlik bilan qarasa birgina uning mag‘lubiyati etishib chiqayotgan yosh sportchilarning ruhiyatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Ushbu keysda keltirilgan sportchilardagi muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartib yoki guruhlarda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo‘yicha sportchilarni musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Keys-stadidagi asosiy muammosportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash jarayonlarida alohida e‘tibor qaratishdan iborat.

### **O‘quvchi-sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash.**

Hozirgi zamon jahon sporti uchun xos bo‘lgan xususiyatlar sifatida sport natijalarining izchil va sezilarli darajada o‘sishi, sport musobaqalari ishtirokchilari tomonidan nafaqat jismoniy, balki ayni paytda juda katta psixik kuch-quvvatni sarflashni tilga olish mumkin. Agar sportchi shaxsining psixik funksiyalari va psixik xususiyatlari kerakli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, hatto jismoniy va texnik jihatdan juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan sportchining imkoniyatlari baland bo‘lganda ham musobaqada g‘alabaga erisha olmasligi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sportchining takomillashishida psixologik tayyorgarligi xuddi uning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi kabi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Sportchining psixologik tayyorgarligi, sportdagi ta‘lim tarbiya jarayonining muayyan bir qismidir. U muayyan sport turidan kelib chiqqan holda shaxsning psixik funksiyalarini hamda xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish muhim dolzarb muammo sifatida qarash lozim. Musobaqalarda sportchilarning imkoniyatlarini aniqlash va belgilab olish. Bu ham psixodiagnostikaning eng zaruriy bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Sportchining start oldidagi psixik holatiga asoslangan holda musobaqadan oldingi prognozlariga ayrim o‘zgartirishlar

kiritiladi. Musobaqalardan oldingi diagnostika birinchi navbatda boshqaruv vositalarini yoki start oldi emotsional holatlarini o‘z-o‘zini tartibga solish vositalarini zamonaviy tarzda qo‘llay bilish uchun zarurdir. Sportchini “Menga nima” deb qarash, loqaydlik, bepisandlik, shuhratparastlik, trener-o‘qituvchini eshita, tushuna bilmaslik, tanqidga chidamaslik, xatosini tan olmaslik – bu egotsentrizm dardiga duchor bo‘lgan sportchining belgilari. Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Sportchining holati va xatti-harakatlarni boshqarish quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi:

1. Muayyan motivlarni tanlashda (sportchini izchil ravishda o‘tkaziladigan sport mashg‘ulotlariga ko‘niktirish).

2. Muloqotning o‘ziga xosligida (tayyorgarlik mashg‘ulotlari va musobaqalar chog‘ida yuz beradigan turli vaziyatlarda sportchiga nimani va qanday aytishni bilish).

3. Startoldi holatlarida sportchining o‘z holatini boshqarish va o‘z-o‘zini tartibga solishiga yo‘naltirilgan hamda mashg‘ulotlar yoki musobaqalardagi kuchli zo‘riqishlardan so‘ng o‘zini qayta tiklab olishga yo‘naltirilgan maxsus psixologik tadbirlardan foydalana bilishda.

Sportchilarni o‘rgatish va tayyorlashda tipik xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratib individuallashtirish alohida e‘tiborga loyiqdir. Ana shunday uslubni qo‘llab, ya‘ni sportchining shaxsiy xususiyatlarini qadrlab, ularni muayyan tiplarga ajratib ish yuritish orqali maxsus psixologik adabiyotlarda taqdim etilgan amaliy tavsiyalardan foydalanish mumkin bo‘ladi. Ayni shunday ishni olib borish uchun mutaxassis-psixologlardan ham aniq maslahat va tavsiyalarni olish mumkin.

### **Savollar:**

1. Sizing fikringizcha ushbu maqolada muallif qanday muammoni ko‘tarib chiqqan?

2. Maqolada muammoni tasdiqlovchi qanday dalillar mavjud?

3. Sportchidagi beparvolik, loqaydlik tufayli vujudga kelgan holatlarni ajratib oling hamda ushbu muammoning kelib chiqish sababi nimada deb uylaysiz?

4. Muallif o‘z maqolasida muammoni oldini olish yo‘llarini qanday bayon etgan?

5. Sizing fikringizcha ushbu muammoni qanday echish mumkin?

**III. Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish bo‘yicha o‘quvchilarga metodik ko‘rsatmalar**

### **Keys-stadini echish bo‘yicha individual ish yo‘riqnomasi**

1. Avvalo, keys-stadi bilan tanishing. Muammoli vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqing. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga harakat qiling.

2. Birinchi savolga javob bering.

3. Ma‘lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni quyidagi harflar yordamida belgilang:

“D” harfi – muammoni tasdiqlovchi dalillar,

## Yosh davrlari psixologiyasi

“S” harfi – muammo sabablarini,

“O.O.Y.” harflari – muammoni oldini olish yo‘llari.

4. Ushbu belgilar 2-,3-,4-savollarga echim topishga yordam beradi.

5. Yana bir bor savollarga javob berishga harakat qiling.

### Guruhlarda keys-stadini echish bo‘yicha yo‘riqnoma

1. Individual echilgan keys-stadi vaziyatlar bilan tanishib chiqing.

2. Guruh sardorini tanlang.

3. Vatman qog‘ozlarda quyidagi jadvalni chizing

### Muammoni tahlil qilish va echish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taklif qilingan echim	Guruh yechimi

Ishni yakunlab, taqdimotga tayyorlang.

### Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

O‘quvchilarro‘yxati	Asosiy muammoajratib olinib, tadqiqot ob‘ekti aniqlangan maks. 6 b	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko‘rsatilgan maks. 4 b	Vaziyatdan chiqib ketish harakat-lari aniq ko‘rsa-tilgan maks. 10 b	Jami maks.20 b

### Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar ro‘yxati	Guruh faol maks. 1 b	Ma‘lumotlar ko‘rgazmali taqdim etildi maks.4 b	Javoblar to‘liq va aniq berildi maks.5 b	Jami maks.10 b

8-10 ball –“a’lo”, 6- 8 ball – “yaxshi”, 4- 6 ball – “qoniqarli” , 0 -4 ball – “qoniqarsiz”

### IV. O‘qituvchi tomonidan keys-stadini echish va tahlil qilish varianti

#### Keys-stadidagi asosiy muammo

Sportchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash jarayonlarini izchil amalga oshmayotganligi.

#### Muammoni tasdiqlovchi dalillar

Sportchilarning musobaqa oldi holatlariga beparvolik, xudbinlik, loqaydlik, manmanlik sifatlarini namoyon etish:

1. “Menga nima”qabilida ish yuritish.

2. Psixologik tayyor emasligi.

3. O‘z-ustida ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmasini shakllanmagani.

**Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari:**Trener-o‘qituvchining sportchini mashg‘ulotlarida va tarbiyasidagi xatoliklariga e‘tibor bermaslik,

mas'uliyatsizlik, ota-onani farzandini nazorat qilmaslik.

**Muallif o'z maqolasida muammoni oldini olish quyidagi yo'llarini ko'rsatib bergan: Trener-o'qituvchini sportchini mashg'ulotlariga va tarbiyasiga katta e'tibor berish, sog'lom muhit o'rnatish, milliy urf-odatlar ruxida kamol toptirish.**

**Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari:** Sportchini mashg'ulotlarda qatnashishini nazorat qilish, "ota-ona + sport maktab + mahalla" uchligi bilan ish yuritish.

### **Yakuniy xulosa**

Psixologik tayyorgarlikning umumiy maqsadi sportchining sportda yuqori darajadagi yutuqlarga erishishi uchun zarur bo'lgan psixik sifatlarni rivojlantirish, unda psixik barqarorlik va mas'uliyatli musobaqalarda ishtirok etishga tayyorlik holatini qaror toptirishdan iboratdir. Biroq sportchini psixologik tayyorlashning maqsadli yo'nalishi faqatgina shundan iborat emas. Uning oldiga jahon sport rekordlarini o'rnatish uchun shart-sharoitlar yaratish, sport iste'dodlarini etishtirish yo'llarini izlash va shu kabi yana bir qator maqsadlarga erishish motivini shakllantirish lozim.

**TESTLAR BANKI**

### “YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI” MODULI BO‘YICHA TEST SAVOLLARI

**1.Yosh psixologiyasi fani qaysi fanning ilmiy asosini tashkil etadi?**

- a) umumiy psixologiya;
- b) ijtimoiy psixologiya;
- c) pedagogik psixologiya;
- d) psixofiziologiya.

**2.Yosh psixologiyasida keng qo‘llanuvchi quyidagi metodlardan qaysilari tashkiliy metodlar jumlasiga kiradi?**

- a)kuzatish va eksperiment;
- b)so‘rov va test;
- c)sotsiometriya va faoliyat mahsulini o‘rganish;
- d)uzunasiga va ko‘ndalangiga kesim.

**3.Gerontopsixologiya yosh psixologiyasi fanining qanday sohasi bo‘lib hisoblanadi?**

- a) bolalik davri psixologiyasi;
- b) o‘smirlik davri psixologiyasi;
- c) etuklik davri psixologiyasi;
- d) keksalik davri psixologiyasi.

**4.Akmeologiya yosh psixologiyasining qanday sohasi sanaladi?**

- a) bolalik davri psixologiyasi;
- b) homila davri psixologiyasi;
- c)etuklik davri psixologiyasi;
- d) keksalik davri psixologiyasi.

**5.“Bola ruhiyati” asarining muallifi hamda zamonaviy yosh psixologiyasi fanining asoschisi bo‘lib hisoblanadigan olim kim?**

- a) U.Djems;
- b) V.Preyer;
- c) K.D.Ushinskiy;
- d) J.J.Russo.

**6.Quyidagi olimlardan kimning psixik rivojlanish haqidagi ilmiy qarashlari kognitiv yondashuvga asoslangan?**

- a) E.Erikson;
- b) J.Piaje;
- c) Z.Freyd;
- d) S.Xoll.

**7.V.Shtern tomonidan ilgari surilgan psixik rivojlanish haqidagi ta’limotning bosh g‘oyasi qanday?**

- a) psixik rivojlanishda irsiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega;
- b) psixik rivojlanishda ijtimoiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega;
- c) psixik rivojlanishda shaxs faolligi hal qiluvchi ahamiyatga ega;
- d) psixik rivojlanishda irsiy va ijtimoiy omilning o‘zaro yaqinlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.



**8.Bola psixik taraqqiyotining etakchi omili sifatida L.I.Bojovich qanday ehtiyojni ta'riflaydi?**

- a) xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj;
- b) shaxsiy imkoniyatlarni namoyon etishga bo'lgan ehtiyoj;
- c) yangi taassurotlarga bo'lgan ehtiyoj;
- d) e'tibor qozonishga bo'lgan ehtiyoj.

**9.D.B.Elkoninning etakchi faoliyat haqidagi nazariyasiga muvofiq "odam-buyum" munosabat tizimi ko'proq qaysi yosh davrlari uchun xos bo'ladi?**

- a) go'daklik, ilk bolalik, o'spirinlik;
- b) maktabgacha yosh davri, kichik maktab yoshi, o'smirlik;
- c) ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'spirinlik;
- d) kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik.

**10.E.Erikson tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra inson psixik rivojlanishi davomida qaysi yosh davrida rollarning chalkashuvi xavfi kuchayadi?**

- a) 3-6 yosh;
- b) 6-12 yosh;
- c) 13-18 yosh;
- d) 20-25 yosh.

**11.J.Piajening intellektual faoliyat taraqqiyoti haqidagi nazariyasida "ramziy (simvolik) intellekt" aqliy rivojlanishning qaysi bosqichiga xos deb hisoblanadi?**

- a) sensomotor intellekt bosqichi;
- b) konkret operatsiyalar davri;
- c) formal operatsiyalar davri;
- d) barcha bosqichlar uchun xos.

**12.Bolada o'zini-o'zi boshqarishning dastlabki elementlari taxminan qachondan shakllana boshlaydi?**

- a) 1 yosh;
- b) 2 yosh;
- c) 4 yosh;
- d) 5 yosh.

**13.Maktabgacha yosh davrida bolalar narsa-buyum shakli o'zgarganda ham uning miqdori saqlanib qolishi qonuniyatini hali tushunmasliklarini eksperimental isbotlagan mashhur olim kim?**

- a) D.B.Elkonin;
- b) Z.Freyd;
- c) M.I.Lisina;
- d) J.Piaje.

**14.Maktabgacha yoshdagi bolaning uzoq vaqt o'ziga unchalik qiziq bo'lmagan topshiriqni bajarishga qodirligi uning maktabda ta'limiga qaysi jihatdan tayyorligini ko'rsatadi?**

- a) emotsional;
- b) motivatsion;

- c) intellektual;
- d) ijtimoiy.

**15. Kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish faoliyatida tafakkurning qaysi turi ustunlik qiladi?**

- a) ko'rgazmali-harakat tafakkuri;
- b) ko'rgazmali-obrazli tafakkur;
- c) so'z-mantiqiy tafakkur;
- d) a va v javoblar to'g'ri.

**16. O'smirlik davrida etakchi faoliyat sifatida gavdalanadigan faoliyat turi qaysi?**

- a) bevosita emotsional muloqot;
- b) predmetli-manipulyativ faoliyat;
- c) o'quv faoliyati;
- d) intim-shaxsiy muloqot.

**17. O'smirlik davrida shaxs rivojlanishida quyidagi jarayonlardan qaysi biri yoki qaysilari ustunlik qilishi kuzatiladi?**

- a) adaptatsiya;
- b) individualizatsiya;
- c) integratsiya;
- d) a va v javoblar to'g'ri.

**18. O'smirlarda xarakter aksentuatsiyalarining namoyon bo'lishi muammosi quyidagi olimlarning qaysi biri tomonidan chuqur o'rganilgan?**

- a) A.E.Lichko;
- b) D.B.Elkonin;
- c) L.I.Bojovich;
- d) M.I.Lisina.

**19. O'smir shaxsida quyidagi ehtiyojlarning qaysi biri ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi?**

- a) kattalar bilan muloqotda bo'lishga nisbatan ehtiyoj;
- b) boshqalarning muayyan voqea-hodisalar haqidagi fikrini bilishga bo'lgan ehtiyoj;
- c) o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji;
- d) kattalardan avtonomiyaga erishishga bo'lgan ehtiyoj altruizmni namoyon .

**20. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri odatda o'smirlik davri uchun xos emas?**

- a) ijtimoiy fobiyalarning kuchayishi;
- b) referent guruhlarning vujudga kelishi;
- c) ota-onaga nisbatan emansipatsiyaning kuchayishi;
- d) o'quv faoliyatida yaxshi baho olishga qiziqishning ortishi.

**21. Bo'sh vaqtga mo'ljallangan xobbi tarzidagi qiziqishlar quyidagi qaysi yosh davri uchun ko'proq xos?**

- a) kichik maktab yoshi;
- b) o'smirlik;
- c) o'spirinlik;

d) b va s javoblar to'g'ri.

**22. Ilk o'spirinlikda qaysi emotsional holatning umumiy darajasi boshqa yosh davrlariga nisbatan yuqori bo'ladi?**

- a) quvonch;
- b) uyatchanlik;
- c) xavotirlanish;
- d) hayratlanish.

**23. Ilk o'spirinlik yoshida odam o'zini yaxshiroq bilish uchun quyidagi usullarning qaysi biridan ko'proq foydalana boshlaydi?**

- a) tengdoshlar beradigan tavsiflarni yig'ish;
- b) o'zini-o'zi kuzatish va tahlil qilish;
- c) o'qituvchilardan tavsif so'rash;
- d) ota-onaning fikrini bilish.

**24. Ilk o'spirinlik davrida tafakkur jarayonlaridagi qanday farqlar ayniqsa yaqqol nmoyon bo'la boshlaydi?**

- a) individual-psixologik xususiyatlar bilan bog'liq farqlar;
- b) ijtimoiy-demografik xususiyatlar bilan bog'liq farqlar;
- c) jinsiy xususiyatlar bilan bog'liq farqlar;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**25. L.S. Vigotskiyning ilmiy ta'limotiga ko'ra ta'lim va psixik taraqqiyot o'rtasidagi munosabat qanday bo'lishi kerak?**

- a) ta'lim psixik taraqqiyotni o'z ketidan etaklashi kerak;
- b) ta'lim psixik tarakkiyotga ergashishi lozim;
- c) ta'lim va psixik taraqqiyot jarayoni yonma yon davom etishi zarur;
- d) ta'lim psixik taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan jarayon.

**26. Sinfda muayyan mavqeni egallash istagi qanday o'quv motiviga misol bo'ladi?**

- a) tashqi motiv;
- b) ichki motiv;
- c) ijtimoiy motiv;
- d) a va s javoblar to'g'ri.

**27. Bola necha yoshdan boshlab mantikiy fikrlaydi?**

- a) 3-5 yoshdan;
- b) 6-10 yoshdan;
- c) 12-15 yoshdan;
- d) 7-8 yoshdan

**28. Yosh davrlar psixologiyasini o'rganadigan sohani toping?**

- a) Ontonegez;
- b) Akseleratsiya;
- c) Melioratsiya;
- d) Psixodiagnostika.

**29. O'sish va rivojlanishning tezlashuv jarayoni nima?**

- a) Ontogenez;
- b) Refleks;

- c) Akseleratsiya;
- d) Instinkt.

**30. Temperament, xarakter, qobiliyat qaysi tipologik xususiyatlarga kiradi??**

- a) Individual;
- b) Amaliy;
- c) Etnik;
- d) Fiziologik.

**31. Psixik (bilish) jarayonlar ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?**

- a) Sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat;
- b) Tafakkur, xayol, muomila, diqqat, idrok;
- c) Xarakter, temperament, tuyg'u, iroda;
- d) O'zini anglash, yo'nalganlik, faollik.

**32. Qobiliyat bu –?**

- a) Faoliyat bilan bog'liq individual psixologik xususiyat;
- b) Bilish jarayon;
- c) Muomala natijasi;
- d) Orttirilgan xususiyat.

**33. Kichik maktab yoshi davrida etakchi faoliyat qaysi?**

- a) o'qish faoliyati;
- b) predmetli faoliyat;
- c) o'yin va mehnat faoliyati;
- d) mehnat faoliyati.

**34. Temperament tiplari qaysi qatorda to'liq ko'rsatilgan?**

- a) xolerik, sangvinik, flegmatik, melonxolik;
- b) xolerik, sangvinik, flegmatik;
- c) sangvinik, flegmatik, melonxolik;
- d) sangvinik, flegmatik, xolerik.

**35. Qaysi javobda psixik kechinmalar keltirilgan?**

- a) xayajon, empatiya;
- b) temperament, xayajon;
- c) empatiya, qobiliyat ;
- d) tafakkur, nutq.

**36. Motiv nima?**

- a) Vazifa;
- b) Harakatga undovchi kuch;
- c) Qiziqish;
- d) Maqsad.

**37. Psixokorreksiya nima?**

- a) tuzatish;
- b) maslaxat berish;
- c) qo'rqitish;
- d) yo'l ko'rsatish.

**38. Trening so'zini ta'rifini ko'rsating?**

- a) Trening - bu muomala madaniyatiga oid mashqlar;

## Yosh davrlari psixologiyasi

- b) Terening - mashq qilish, biror maqsadga yo'naltirilgan pedagogik va psixologik aqliy o'yin mashqlarini ijro etish  
c) Trening - bu aqlni peshlashga doir mashqlar;  
d) Trening - bu muloqotchanlik usuliga oid o'yinlar tizimi;

### 39. Autogen mashqlar tizimi bu-?

- a) o'z-o'zini ishontirish mashg'uloti;  
b) xotirani rivojlantirish mashg'uloti;  
c) o'z-o'zini baholash mashg'uloti;  
d) chaqqonlikni oshirish mashg'uloti.

### 40. Musobaqa bu -?

- a) Sportchining mahorati;  
b) O'quvchi faoliyatini belgilovchi, kuzatuvchi omildir;  
c) Sportchining imkoniyati;  
d) Sportchining g'alabaga chorlash.

### TEST JAVOBLARI

No	To'g'ri javob varianti	No	To'g'ri javob varianti	No	To'g'ri javob varianti
1	c	16	d	31	a
2	d	17	b	32	a
3	d	18	a	33	a
4	c	19	d	34	a
5	b	20	d	35	a
6	b	21	d	36	b
7	d	22	c	37	a
8	c	23	b	38	b
9	c	24	c	39	a
10	c	25	a	40	b
11	a	26	d		
12	b	27	a		
13	d	28	a		
14	a	29	c		
15	b	30	a		



## GLOSSARIY

---

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

**Kuzatish** - psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, planli, biror maqsad asosida o'rganish

**Kuzatuvchanlik** – shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jaraenida narsalarni kamdan-kam uchraydigan ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoèn bo'ladi.

**Ko'nikma** - oldinga qo'yilgan maqsad va xatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanishdir. Ko'nikma eksteriorizatsiya qilishni – bilimlarning jismoniy harakatga mujassamlashuvini taqozo etadi.

**Mayl** – shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishiga jalb etilganligi. Mayl shaxsda kuchli istak, xohish tarzida namoèn bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

**Motiv** - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi kuch, sababdir.

**Yosh-** individning ma'lum aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiètining bosqichi. Ushbu bosqichda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o'zgarishlari kuzatiladi.

**Yosh davri nizolari** - o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar ro'y beradi.

**Yosh psixologiyasi** – inson psixikasining èsh jihatdan taraqqièti, psixik jaraenlar hamda inson shaxsi xislatlarining ontogenezini o'rganuvchi fan Empatiya-insonning boshqalarga hamdard bo'lishi, ularning holatini tushunishi, ularga beg'araz èrdam ko'rsatishga tayèrligi.

**Eksperiment** – tajriba – psixologiyaning asosiy metodlaridan, o'zgaruvchan mustaqil psixologik holatlarning boshqa nomustaqil holatlariga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlarga tayanadi

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**



### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 592b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 400b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘xalqning ishi han ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 592b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.

### II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassisلامي qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

### III. Maxsus adabiyotlar:

18. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T. 2002.
19. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. T. 2010
20. Krayg G. Psixologiya razvitiya. M. 2000
21. Nishonova Z.T., Alimova G.Q. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. T. TDPU, 2005.
22. Davletshin M.G., Do‘stmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M., “Yosh va pedagogik psixologiya”. T. TDPU, 2004 .

## Yosh davrlari psixologiyasi

---

23. Davletshin M.G. “Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi”. T. TDPU,1999 y.
24. Элконин D.B. Избранные психологические труды. – М., 2000.
25. Bauer M. Психологическое развитие младенца.– М., 2001. Акинщикова G.I. Соматическая и психофизиологическая организация человека. L. 2000.
26. Вазылевич T.F. Развитие концепции самостной индивидуальности. В сб.: V.D Небылисы. Жизнь и научное творчество». М., Наука, 2003.
27. Биологическое и социальное в развитии человека. Под ред. B.F.Lomova, M., Наука. 2000.
28. Brushlinskiy A.V. Проблемы психологии субъекта. М. 2001.
29. Nishonova Z.T., Tulyaganova Sh.T., Ubaydullayev A.X. «O‘smirlik davrida qo‘rquv holatining namoyon bo‘lishi». T.TDPU, 2009.
30. Rays F. Психология подросткового и юношеского возраста. М.2003
31. Элконин D.B. Детская психология. М. 2000
32. Эфимкина R.P. Детская психология. М. 2003.
33. J.A Pulatov. Yosh davrlari psixologiyasi [Matn]: Darslik. Toshkent: “Umid Design”, 2022.-203 b.
34. J.A. Pulatov Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining dars jarayonlarini tashkil etishida psixologik yondoshuvi. [Matn]: O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Umid Design”, 2021.-113 b

### IV. Elektron ta’lim resurslari:

6. <http://www.ziyonet.uz>
7. <http://www.minsport.uz>
8. <http://www.sportedu.uz>
9. <http://edu.uz>
10. <http://lex.uz>